



## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRINING BUYRUG'I**

### **Maktabgacha va maktab ta'lifi tashkilotlari xodimlarini uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'lifi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 2-iyuldaggi PF-98-soni Farmoni va "Maktabgacha va maktab ta'lifi tashkilotlari xodimlarini uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-soni qaroriga muvofiq hamda maktabgacha va maktab ta'lifi tashkilotlarining rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarini uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish maqsadida **buyuraman**:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-soni qaroriga muvofiq A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti negizida A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (keyingi o'rnlarda – Institut) hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari negizida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlari (keyingi o'rnlarda – Hududiy markazlar) tashkil etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti to'g'risida nizom 1-ilovaga muvofiq;

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq;

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tuzilmasi bo'yicha lavozimlar nomi va shtat birliklari soni 3-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlari to'g'risidagi namunaviy nizom 4-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlarining tuzilmasi 5-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlarining tuzilmasi bo'yicha lavozimlar nomi va shtat birliklari soni 6-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha ta'lif tashkilotlari direktori va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti to'g'risidagi nizom 7-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha ta'lif tashkilotlari direktori va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tuzilmasi 8-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha ta'lif tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tuzilmasi bo'yicha lavozimlar nomi va shtat birliklari soni 9-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Institut (A.Ismailov), Maktabgacha ta'lif instituti (N.Abdunazarova), Hududiy markazlar:

ikki hafta muddatda Institut, Maktabgacha ta'lif instituti va Hududiy markazlar to'g'risidagi nizomni belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishini ta'minlasin;

ikki hafta muddatda Institut va Hududiy markazlardagi xodimlarning funksional majburiyatları hamda malaka tavsiflarini qayta ishlab chiqib, belgilangan tartibda tasdiqlash uchun vazirlikning Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasiga taqdim qilsin.

4. Moliya-iqtisod departamenti (I.Siradjev) ikki hafta muddatda qaror talablaridan kelib chiqib Institut, Maktabgacha ta'lif instituti va Hududiy markazlar tomonidan taqdim qilingan shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish choralarini ko'rsin.

5. Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlari ma'muriy-boshqaruva va pedagog kadrlarining sifat tarkibini yaxshilash bo'yicha ishchi guruhlar tarkibi 10-ilovaga muvofiq tasdiqlansin hamda vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

2024-yil 1-sentabrdan boshlab Institut va Hududiy markazlarning rahbar, ma'muriy-boshqaruva va pedagog xodimlari tarkibini qayta ko'rib chiqish hamda ushbu lavozimlarga yuqori malakali va tajribali kadrlarni tanlab olish;

Institut hamda Hududiy markazlarga kamida bir nafardan nufuzli xorijiy oliv ta'lif tashkilotlarini bitirgan chet ellik mutaxassislarni jalg qilish.

6. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (I.Sharipov) Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri nomenklaturasiga o'tkazilayotgan Hududiy markazlar direktor va o'rindbosarlarining mehnat shartnomalariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish choralarini ko'rsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi tizimiga oid ayrim buyruqlar 11-ilovaga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. Devonxona (H.Raximbayeva) bir kun muddatda ushbu buyruqni boshqarma va bo'limlar, tegishli tashkilotlar va muassasalarga yetkazsin.

9. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rindbosari S.Radjabov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir

Toshkent sh.,  
2024-yil "5" – iyuldag'i,  
210 - son

X.Umarova



O‘zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining  
2024-yil-“5”-iyuldagи 210-son buyrug‘iga  
1-ILOVA

**A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT  
MILLIY INSTITUTI TO‘G‘RISIDA  
NIZOM**

**Toshkent – 2024**

## **I. UMUMIY QOIDALAR**

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va məktəb tə’limi təşkilotları rəhbər, pedagog və mütəxəssis kadrlarını uzluksız kasbiy rivojlantırış tizimini takomillashtırış bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qarori asosida ishləb chiqilgan bo‘lib, A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining (keyingi o‘rinlarda – Institut) məqomi, asosiy vazifələri, hüquq və məjburiyyətləri, fəaliyatını təşkil etish və məliyalashtırış tərtibini belgiləydi.

2. Institut rəhbər, pedagog və mütəxəssis kadrlarını uzluksız kasbiy rivojlantırış tizimi samaradorligini ta’minlash, ularning kasbiy bilim, ko‘nikma və mahoratını müntazam oshirib borish, doktorantura yo‘nalishlari və magistratura mütəxəssisliklari bo‘yicha yuqori malakali kadrlarnı təyyorlash, ilmiy xodimlarning kasbiy bilim darajasını doimiy oshirib borish, shuningdek, maktabgacha və məktəb tə’limi təşkilotları direktorları və direktor lavozimiga nomzodlarning boshqaruv sohasiga oid bilim və ko‘nikmalarini, pedagog kadrlarning umumta’lim fanları bo‘yicha bilim darjası və kasbiy mahoratını baholash hamda baholash natijası bo‘yicha ularga tegishli darajadagi sertifikatlarnı berish, məktəb tə’limi pedagog xodimlarını qayta təyyorlash, rəhbər, pedagog və mütəxəssis kadrlarning malakasını oshirish fəaliyyətləri bilan shug‘ullanuvchi tə’lim təşkilotidir.

3. Institut O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha və məktəb tə’limi vazirlığı (keyingi o‘rinlarda – Vazirlik) tasarrufidagi təşkilot bo‘lib, Maktabgacha tə’lim təşkilotları direktor və mütəxəssislerini qayta təyyorlash və ularning malakasını oshirish instituti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda viloyatlar pedagogik mahorat markazları (keyingi o‘rinlarda – Hududiy markazlar) uchun bosh tə’lim muassasasi hisoblanadi hamda ularning o‘quv, metodik və ilmiy fəaliyatiga rəhbərlik qiladi.

4. Institutning rəsmiy nomlanishi:

a) davlat tilida:

to‘liq – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, qisqartması – A.Avloniy nomidagi PMMI;

b) rus tilida:

to‘liq – Национальный институт педагогического мастерства имени А.Авлони, qisqartması – НИПМ имени А.Авлони;

d) ingliz tilida:

to‘liq – National Institute of Pedagogical Skills named after A.Avloni, qisqartması – NIPS named after A.Avloni.

5. Institutda o‘qitish ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olish, ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olish, masofaviy ta’lim, dual ta’lim, mustaqil ta’lim va qonunchilikda belgilangan boshqa shakllarda amalga oshiriladi.

6. Institut davlat ta’lim muassasasi shaklidagi yuridik shaxs hisoblanadi. U o‘zining mustaqil balansiga, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining g‘aznachiligidagi budjet dan tashqari shaxsiy hisob varaqlariga ega.

7. Institut o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Vazir buyruqlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga va mazkur Nizomga amal qiladi.

8. Institut (pochta manzili) Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko‘chasi, 6-uy manzilida joylashgan, elektron manzili: [info@avlonyuz.uz](mailto:info@avlonyuz.uz).

## **II. INSTITUTNING VAZIFALARI VA FUNKSIYALARI**

9. Quyidagilar Institutning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Prezident maktablarida o‘quvchilarni o‘qitish, kasb-hunarga yo‘naltirish, ularda tanqidiy fikrlash, axborotni izlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha to‘plangan ilg‘or tajribalarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi orqali umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga keng tatbiq etish;

rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi samaradorligini ta’minalash, ularning kasbiy bilim, ko‘nikma va mahoratini muntazam oshirib borish, malaka oshirish va qayta tayyorlashning an’anaviy, muqobil, dual va mustaqil shakllarini amaliyotga keng joriy etish;

malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarining o‘quv reja va dasturlarini ishlab chiqish hamda ularni zamon talablari va xorijiy ilg‘or tajribalar asosida takomillashtirib borish;

kelajak maktabi, uning rahbari va o‘qituvchisining modelini yaratish asosida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari xodimlarining kasbiy standartlarini ishlab chiqish va doimiy tarzda rivojlantirib borish, o‘quv-metodik faoliyatning ta’lim jarayoni bilan aloqalarini mustahkamlash;

davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari uchun uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarining namunaviy o‘quv reja va dasturlarini ishlab chiqish va doimiy yangilab borish;

umumiy o‘rta ta’lim sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va mamlakatimizda joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish, xorijiy yetakchi

ta’lim tashkilotlari bilan xalqaro aloqalarni rivojlantirish;

umumi o‘rta ta’limning dolzarb muammolari yuzasidan turli dastur va loyihalarni amalga oshirish, ilmiy-uslubiy konferensiya va seminarlar tashkil etish;

doktorantura yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ilmiy xodimlarning kasbiy bilim darajasini doimiy oshirib borish;

“Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasini yuritish va uning faoliyatini takomillashtirib borish;

kasbiy rivojlantirish, malaka oshirish va qayta tayyorlash jarayonlari sifatini nazorat qilish, ta’lim jarayoniga oid tahlillar olib borish va o‘quv faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

Hududiy markazlarning o‘quv, metodik va ilmiy faoliyatiga rahbarlik qilish;

Maktabgacha va maktab ta’lim muassasalari direktorlari va direktor lavozimiga nomzodlarni maxsus dasturlar asosida o‘qitish, ularning boshqaruv sohasiga oid bilim va ko‘nikmalarini baholash hamda baholash natijasidan kelib chiqib menejerlik sertifikatini berish;

pedagog kadrlarning umumta’lim fanlari bo‘yicha bilim darjasini va kasbiy mahoratini baholash hamda baholash natijasidan kelib chiqib, umumta’lim fanlari bo‘yicha tegishli darajadagi sertifikat berish;

xalqaro baholash dasturlarini joriy etish hamda muvofiqlashtirishda ishtirok etish, ta’lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o‘rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

xalqaro baholash dasturlarida qayd etilgan natijalarni qiyosiy taqqoslash, xalqaro baholash dasturlarini ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg‘or tajribani ommalashtirish;

o‘quv-uslubiy materiallar, ilmiy tadqiqot natijalari, ilmiy ommabop va tadqiqot materiallarini nashrga tayyorlash va nashrdan chiqarish.

10. Institut o‘ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

*a) Prezident maktablarida o‘quvchilarni o‘qitish, kasb-hunarga yo‘naltirish, ularda tanqidiy fikrlash, axborotni izlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha to‘plangan ilg‘or tajribalarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi orqali umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga keng tatbiq etish bo‘yicha:*

Prezident maktablarida to‘plangan ilg‘or tajribalar asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining o‘quv reja va dasturlarini takomillashtirish;

Prezident maktablarida to‘plangan ilg‘or tajribalarni umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga keng tatbiq etish, umumiy o‘rta ta’lim mazmunini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish hamda tegishli takliflarni ishlab chiqish;

*b) rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarni uzlucksiz kasbiy rivojlantirish tizimi samaradorligini ta’minalash, ularning kasbiy bilim, ko‘nikma va mahoratini muntazam oshirib borish, malaka oshirish va qayta tayyorlashning an’anaviy, muqobil, dual va mustaqil shakllarini amaliyatga keng joriy etish bo‘yicha:*

rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarni uzlucksiz kasbiy rivojlantirish tizimi samaradorligini oshirish;

rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarni kasbiy bilim, ko‘nikma va mahoratini muntazam oshirib borish;

malaka oshirish va qayta tayyorlashning an’anaviy, muqobil, dual va mustaqil shakllarini belgilash hamda amaliyatga joriy etish;

*d) malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarining o‘quv reja va dasturlarini ishlab chiqish hamda ularni zamon talablari va xorijiy ilg‘or tajribalar asosida takomillashtirib borish bo‘yicha:*

o‘quv rejalar va dasturlar, o‘quv-metodik va normativ hujjatlarni ishlab chiqish hamda doimiy yangilab borish;

qayta tayyorlash va malaka oshirish sifatining tinglovchilar tayyorgarligining zarur va yetarli darajasiga qo‘yiladigan malaka talablariga muvofiqligini monitoring qilish;

o‘quv reja va dasturlarini zamon talablari va xorijiy ilg‘or tajribalar asosida takomillashtirib borish;

*e) kelajak maktabi, uning rahbari va o‘qituvchisining modelini yaratish asosida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari xodimlarining kasbiy standartlarini ishlab chiqish va doimiy tarzda rivojlantirib borish, o‘quv-metodik faoliyatning ta’lim jarayoni bilan aloqalarini mustahkamlash bo‘yicha:*

mamlakatimiz va rivojlangan mamlakatlar ta’limidagi yetakchi tendensiyalarni aniqlash asosida kelajak maktabi, uning rahbari va o‘qituvchisining modelini yaratish;

kelajak maktabi faoliyatini tashkil qiluvchi va unda ishtirok etuvchi umumiy o‘rta ta’lim xodimlarining kasbiy standartlarini ishlab chiqish va doimiy tarzda rivojlantirib borish;

Institut ilmiy-tadqiqot hamda o‘quv-metodik faoliyatining maktablardagi ta’lim jarayonlari bilan aloqalarini mustahkamlash, ilmiy innovatsiyalarni maktablardagi ta’lim jarayonlariga tatbiq etish;

*f) davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari uchun uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarining namunaviy o'quv reja va dasturlarini ishlab chiqish va doimiy yangilab borish bo'yicha:*

maktab ta'lifi xodimlarining malakasini oshirish ta'lim muassasalari, shu jumladan, mazkur faoliyat bilan shug'ullanayotgan nodavlat ta'lim tashkilotlari uchun namunaviy o'quv rejalar va dasturlar, o'quv-metodik hujjatlarni ishlab chiqish va doimiy yangilab borishga ko'maklashish;

qayta tayyorlash va malaka oshirish sifati tinglovchilar tayyorgarligining zarur va yetarli darajasiga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiqligini nazorat qilish;

maktabgacha va maktab ta'lifi tizimi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha boshqa tashkilotlardan, shu jumladan, nodavlat ta'lim tashkilotlaridan taqdim etilgan dasturlar loyihamonini ko'rib chiqish va ular bo'yicha xulosalar tayyorlash;

*g) umumiy o'rta ta'lim sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va mamlakatimizda joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, xorijiy yetakchi ta'lim tashkilotlari bilan xalqaro aloqalarini rivojlantirish bo'yicha:*

umumiy o'rta ta'lim sohasidagi ilg'or tajribalarni o'rganish va mamlakatimizda joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

umumiy o'rta ta'lim sohasidagi ilg'or tajribalarni tadqiq qilish natijalariga ko'ra takliflar, tavsiyalar, qo'llanmalar va monografiyalar tayyorlash;

xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish va birgalikda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish;

xorijiy yetakchi ta'lim muassasalarining mutaxassislarini taklif qilish va Institut xodimlarini xorijiy mamlakatlarga tajriba almashish va stajirovkalarga yuborish;

*h) umumiy o'rta ta'limning dolzarb muammolari yuzasidan turli dastur va loyihalarni amalga oshirish, ilmiy-uslubiy konferensiya va seminarlar tashkil etish bo'yicha:*

umumiy o'rta ta'limning dolzarb muammolari yuzasidan tizimli asosda ilmiy-tadqiqot dasturlari va loyihalarni amalga oshirish;

umumiy o'rta ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligini ta'minlash yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borish;

maktabgacha va maktab ta'lifi tizimini ilmiy-metodik jihatdan ta'minlash yuzasidan respublika va xalqaro darajadagi ilmiy, ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminar hamda "davra suhbatlari"ni tashkil etish va o'tkazish;

xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta'lim muassasalari bilan birgalikda ilmiy anjumanlar (konferensiya, seminar, trening) tashkil qilish;

i) doktorantura yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ilmiy xodimlarning kasbiy bilim darajasini doimiy oshirib borish bo‘yicha:

maktabgacha va maktab ta’limi tizimi uchun doktorantura orqali pedagogika fanining “Ta’limda menejment”, “Fanlarni o‘qitish nazariyasi va metodikasi” hamda “Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi” ixtisosliklari bo‘yicha fan doktorlarini tayyorlash;

“Ta’limda menejment” va “Kattalar ta’limi” bir yillik magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash;

ilmiy xodimlarning kasbiy bilim darajasini doimiy oshirib borish;

j) “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasini yuritish va uning faoliyatini takomillashtirib borish bo‘yicha:

“Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasi faoliyatini yuritish, uning muntazam ish holatida bo‘lishini texnikaviy va dasturiy jihatdan ta’minlash;

malaka oshirish kurslari o‘quv modullari kontentini shakllantirishga bo‘lgan talablarni ishlab chiqish;

maktabgacha va maktab ta’limi xodimlari malakasini oshirish bilan shug‘ullanuvchi ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlikda malaka oshirishning turli yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv modollarini markazlashtirilgan holda ishlab chiqish va elektron platformaga joylashtirilishini tashkil qilish;

“Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish va natijalarni amaliyatga joriy etish;

k) kasbiy rivojlantirish, malaka oshirish va qayta tayyorlash jarayonlari sifatini nazorat qilish, ta’lim jarayoniga oid tahlillar olib borish va o‘quv faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish sohasida:

uzluksiz kasbiy rivojlantirish o‘quv jarayonlarini (onlayn va an’anaviy) kuzatib borish va dars mashg‘ulotlarining sifatini monitoring qilish;

qayta tayyorlash kurslaridagi o‘quv jarayonlari hamda o‘quv-uslubiy ta’minot sifatini muntazam nazorat qilish, kuzatish, tahlillar olib borish va sifatni ta’minlash bo‘yicha takliflar kiritish;

l) Hududiy markazlarning o‘quv, metodik va ilmiy faoliyatiga rahbarlik qilish sohasida:

hududiy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining kasbiy bilimlari va malakalarini takomillashtirish ishlariga ilmiy-metodik jihatdan rahbarlik qilish;

qayta tayyorlash va malaka oshirishning samarali shakllarini joriy etishning ilmiy-metodik va tashkiliy-metodik asoslarini ishlab chiqish;

ta’lim dasturlarining uzlusizligi va izchilligini hisobga olgan, ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘qitishning interaktiv metodlaridan foydalangan holda maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha namunaviy o‘quv reja, dastur, o‘quv-metodik va normativ hujjatlarni ishlab chiqish;

ehtiyoj yuqori bo‘lgan ayrim yo‘nalishlar bo‘yicha pedagogik mahorat markazlari uchun ma’ruzachilar, trenerlar tarkibini tayyorlash;

respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ta’lim tizimiga doir dolzarb vazifalaridan kelib chiqib, qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonini tashkil etishga taalluqli hujjatlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

qayta tayyorlash va malaka oshirish sifatini oshirish, o‘quv, metodik va ilmiy faoliyatiga doir muammolarni aniqlash va bartaraf etish maqsadida Hududiy markazlar faoliyatini o‘rganish va metodik yordam ko‘rsatish;

maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzlusiz kasbiy rivojlanish tizimini takomillashtirish maqsadida Hududiy markazlardan turli ma’lumotlar, hisobotlar va boshqa hujjatlarni olish, tahlil qilish va umumlashtirish;

*m) Maktabgacha va maktab ta’lim muassasalari direktorlari va direktor lavozimiga nomzodlarni maxsus dasturlar asosida o‘qitish, ularning boshqaruva sohasiga oid bilim va ko‘nikmalarini baholash hamda baholash natijasidan kelib chiqib menejerlik sertifikatini berish sohasida:*

Maktabgacha va maktab ta’lim muassasalari direktorlari va direktor lavozimiga nomzodlarni menejerlik sertifikatini olish uchun maxsus pullik dasturlar asosida (jamoada ishslash va ota-onalar bilan muloqot qilish, boshqaruva, moliyaviy hisobkitoblarni amalga oshirish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ko‘nikmalariga) o‘qitish;

o‘qitish yakuni bo‘yicha institut tomonidan ularning boshqaruva sohasiga oid bilim va ko‘nikmalarini baholash hamda natijasi bo‘yicha ularga menejerlik sertifikatini berish;

*n) pedagog kadrlarning umumta’lim fanlari bo‘yicha bilim darajasi va kasbiy mahoratini baholash hamda baholash natijasidan kelib chiqib, umumta’lim fanlari bo‘yicha tegishli darajadagi sertifikat berish sohasida:*

pedagog kadrlarning umumta’lim fanlari bo‘yicha bilim darajasi va kasbiy mahoratini baholash;

baholash natijasidan kelib chiqib umumta'lim fanlari bo'yicha ularga tegishli darajadagi sertifikat berish;

*o) xalqaro baholash dasturlarini joriy etish hamda muvofiqlashtirishda ishtirok etish, ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarни o'rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish sohasida:*

ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro baholash dasturlarini joriy etish hamda muvofiqlashtirish bilan bog'liq tadbirlar, shuningdek, seminar, davra suhbatlari, simpozium, uchrashuv, milliy loyiha menejerlari majlislari va boshqa tadbirlarda ishtirok etish;

xalqaro baholash dasturlarini joriy etish hamda amalga oshirish bo'yicha xorijiy va xalqaro tashkilotlar, shu jumladan donor tashkilotlar, xalqaro moliya institutlari, jamg'armalar bilan muloqotlar olib borish, ma'lumotlar almashish hamda muhokama jarayonlarida qatnashish;

xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish bo'yicha xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik hujjatlari imzolanishini tashkil etish;

ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadbirlar, anjumanlar, seminarlar, davra suhbatlarini tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;

xorijiy mamlakatlardan ekspertlar taklif qilish hamda ular ishtirokida seminar-treninglar o'tkazish;

xalqaro baholash dasturlari doirasida tashkil etiladigan uchrashuvlar, seminarlar, treninglar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarda ishtirok etish;

*p) xalqaro baholash dasturlarida qayd etilgan natijalarini qiyosiy taqqoslash, xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg'or tajribani ommalashtirish sohasida:*

PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS kabi xalqaro tadqiqotlarni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bo'yicha milliy rejalashtirish va amalga oshirish bilan bog'liq ishlarni bajarish;

xalqaro ta'lim sifatini baholash dasturlari natijalarini tahlil qilish maqsadida tegishli tashkilot va muassasalardan ma'lumotlar olish, ma'lumotlar bazalarini shakllantirish;

xalqaro ta'lim sifatini baholash dasturlari natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan taqqoslash, tahlil qilish natijasida tegishli takliflar ishlab chiqish;

umumiyoq o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari savodxonligini shakllantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va milliy tajribalarni o'rganish;

umumiyl o‘rtalim muassasalari o‘quvchilarining yozma nutq savodxonliklarini oshirish bo‘yicha milliy va ilg‘or tajribalarni joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

*q) o‘quv-uslubiy materiallar, ilmiy tadqiqot natijalari, ilmiy ommabop va tadqiqot materiallarini nashrga tayyorlash va nashrdan chiqarish sohasida:*

o‘quv-uslubiy materiallar, ilmiy tadqiqot natijalari, ilmiy ommabop va tadqiqot materiallarini loyihalarni tayyorlash va soha mutaxassislarini jalg qilgan holda tahrirdan o‘tkazilishini ta’minlash;

mahsulotlarni nashrga tayyorlash va nashrdan chiqarilishini ta’minlash.

### **III. INSTITUTNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

11. Institut o‘ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

ta’lim mazmunini takomillashtirish va samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar kiritish;

maktabgacha va maktab ta’limi tizimi rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari uchun o‘quv reja, dastur va qo‘llanmalar tayyorlash;

aholiga, turli tashkilotlarga pulli ta’lim xizmatlari va boshqa xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek, qonunda taqiqilanmagan, institutning asosiy faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydigan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanish;

Institut va Hududiy markazlarda mavjud tarkibiy bo‘limlar va markazlarni o‘zgartirish, tugatish hamda yangilarini tashkil etish, shtat birliklarini bir bo‘limdan boshqasiga o‘tkazish bo‘yicha Vazirlikka takliflar kiritish;

Institutning ma’muriy-boshqaruva xodimlari, metodistlar, professor-o‘qituvchilar va boshqa xodimlarining maoshlariga belgilangan tartibdarag‘batlantiruvchi ustamalar tayinlash;

Institut xodimlarini mehnatdagi yuqori ko‘rsatkichlari uchun davlat va idoraviy mukofotlar bilan taqdirlash to‘g‘risida Vazirlikka takliflar kiritish;

Institut va Hududiy markazlarda qayta tayyorlash va malaka oshirish faoliyatining sifati va samaradorligini ta’minlash choralarini ko‘rish;

hamkorlik doirasida mualliflik ishlarini ishlab chiqish uchun tajribali mutaxassis va pedagog xodimlarni jalg qilish (zaruratga ko‘ra, shartnoma asosida);

qonunchilikka kiritilgan o‘zgartirishlarga muvofiq Institut o‘quv reja va dasturlariga tuzatishlar kiritish;

o‘ziga yuklatilgan vazifalar doirasida xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshirish;

ilg‘or xorijiy tajribani joriy etish maqsadida malakali xorijiy mutaxassislarni jalgilgan holda ta’lim muassasalari rahbar va mutaxassislari malakasini oshirish uchun qisqa muddatli kurslarni tashkil etish;

Institut xodimlarini ilg‘or metodik va innovatsion pedagogik texnologiyalarni o‘rganish va o‘qitish, tajriba almashish uchun tajriba orttirish, seminar va konferensiyalarda ishtirok etish uchun xorijiy mamlakatlarga yuborish;

maktabgacha va maktab ta’limi tizimining dolzarb va istiqbolli vazifalarini hal qilish uchun tuzilgan ishchi guruhlarda ishtirok etish;

Institut faoliyatini keng yoritish maqsadida rasmiy veb-saytlar yaratish, ijtimoiy tarmoqlarda sahifalar ochish;

Institutning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ma’nан va texnik jihatdan eskirgan, foydalanish muddatlari o‘tib, yaroqsiz bo‘lib qolgan o‘quv adabiyotlari, jihozlar, transport va texnika vositalari, asbob-uskunalarni qonun hujjatlariga muvofiq hisobdan chiqarish;

ta’lim-tarbiya jarayoniga ta’sir etmagan holda bo‘sh turgan bino va inshootlar, transport vositalari, texnik anjom va uskunalarni belgilangan tartibda ijaraga berish;

budjetdan tashqari hisob-raqamidagi mablag‘larni o‘rnatalgan tartibda tasarruf etish;

o‘zini-o‘zi mablag‘ bilan ta’minlaydigan xo‘jalik hisobidagi tarkibiy bo‘linmalar (markazlar va shu kabilar) tashkil etish va tugatish takliflar ishlab chiqish;

Institut xodimlari sog‘lig‘ini muhofaza qilish maqsadida sog‘lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish.

## 12. Institut quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

Institutga yuklatilgan vazifalarni o‘z vaqtida sifatli va to‘liq bajarilishini ta’minlash;

Institut faoliyatini muntazam takomillashtirib borish, o‘quv, metodik, ilmiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash yuzasidan chora-tadbirlar, dasturlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish;

tasdiqlangan ish rejalari, malaka oshirish, qayta tayyorlash va menejerlik kurslari o‘quv reja va dasturlarining to‘liq va sifatli bajarilishini ta’minlash;

ta’lim jarayoniga zamонавиу pedagogik, innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish, o‘quv mashg‘ulotlarini sifatli, samarali va mazmunli tashkil etish;

Institutda tinglovchilarning ta’lim olishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning xavfsizligi va salomatligini muhofaza qilish choralarini ko‘rish;

maktabgacha va maktab ta’lim muassasalari direktorlari va direktor lavozimiga nomzodlar hamda pedagog kadrlarning bilim va ko‘nikmalarini baholash hamda baholash natijasidan kelib chiqib tegishli darajadagi sertifikatlarni berish;

Institut xodimlarining qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralarini ko‘rish;

Institut qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquq va majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

#### **IV. INSTITUT FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH**

13. Institutni uzoq va o‘rta muddatli strategik rivojlantirish dasturlarini tasdiqlash va ularni amalga oshirishga ko‘maklashish, uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish, moddiy-texnika, o‘quv-metodik bazani mustahkamlash hamda ijtimoiy va maishiy infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha maqsadli chora-tadbirlarni belgilash hamda ularning amalga oshirilishini nazorat qilib borish, shuningdek, Institut faoliyati va rivojlanishini ta’minalash uchun moliyaviy va moddiy resurslarni jalb qilishda ko‘maklashish maqsadida Vasiylik kengashi tashkil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vaziri Vasiylik kengashining raisi hisoblanadi.

14. Institutga O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vaziri tomonidan lavozimiga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan rektor rahbarlik qiladi.

Institut rektori barcha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarida, mahalliy ijo etuvchi hokimiyat organlarida, shuningdek, xorijiy mamlakatlarda institut nomidan ish yuritadi.

15. Quyidagilar rektorning asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, ushbu Nizom talablariga rioya qilish;

Institut faoliyatiga umumiylah rahbarlik qilish, o‘quv-metodik, ilmiy-tadqiqot jarayonini, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samarali tashkil etish;

Institut xodimlarini belgilangan tartibda lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish;

prorektorlar va boshqa mansabdor shaxslarning vakolatlarini belgilash, ular o‘rtasida majburiyatlarni taqsimlash, Institut tarkibiy bo‘limlari, markazlar

va kafedralarga rahbarlik qilish borasida prorektorlar va boshqa mansabdor shaxslarning shaxsiy javobgarlik darajasini belgilash;

Institutning prorektorlari, bo‘lim boshliqlari, kafedra mudirlari hamda Hududiy markazlarning o‘quv, metodik va ilmiy faoliyati bo‘yicha hisobotlarini eshitish;

yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, xorijiy shaxslar va tashkilotlar bilan shartnoma va bitimlar tuzish;

Vazirlikda Institut manfaatlarini ifodalash, shuningdek, Institut faoliyatiga doir hisobotlar taqdim etish;

Institut kengashi tavsiyalari asosida o‘quv rejalar, dasturlar va ilmiy-metodik ishlar rejasini tasdiqlash;

Institut tarkibiy bo‘linmalari xodimlarining vazifalari, mehnat va boshqa huquqlari, funksional vazifalarini tartibga soluvchi ichki me’yoriy hujjatlarni belgilangan tartibda tasdiqlash;

belgilangan tartibda Institut mulki va mablag‘larini tasarruf etish;

o‘z vakolatlari doirasida buyruqlar chiqarish va ishonchnomalar berish;

Institut xodimlarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalari to‘g‘risida qarorlar qabul qilish;

Institutda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-metodik ishlarni muvofiqlashtirish;

qayta tayyorlash va malaka oshirishga qo‘yiladigan davlat talablari, o‘quv rejalar, o‘quv dasturlari va boshqa o‘quv-metodik hujjatlarning o‘quv jarayoniga tatbiq etilishini ta’minalash;

Institutda maishiy xizmatlar ko‘rsatishni tashkil etish, o‘quv-metodik va moddiy-texnik bazani mustahkamlash va rivojlantirish ishlarini amalga oshirish;

Institutning ichki tartib-qoidalarini tasdiqlash, unga xodimlar va tinglovchilar tomonidan rioya etilishini nazorat qilish;

Institut faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha kompleks dasturlar, chora-tadbirlar, konsepsiylar ijrosini tahlil qilish;

Institutning ilmiy-tadqiqot, o‘quv-metodik va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

Institut jamoasida sog‘lom ma’naviy va ijodiy muhitni shakllantirish.

Institut rektoriga qonun hujjatlarda nazarda tutilgan boshqa vazifalar ham yuklatilishi mumkin.

16. Institut prorektorlari O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Institutda rektor bo‘lмаган даврда унинг ваколатларини vazifa taqsimotlariga ko‘ra prorektorlardan biri vaqtincha bajaradi.

17. Institut faoliyatiga tegishli asosiy masalalarni ko‘rib chiqish uchun Institut kengashi tashkil etiladi.

Institut kengashi asosiy masalalarni ko‘rib chiqadigan Institutning oliv boshqaruv organi hisoblanadi.

Institut kengashi tarkibi institut rektorining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi. Institut kengashi tarkibiga prorektorlar, kafedra mudirlari, bo‘lim boshliqlari va xodimlari, professor-o‘qituvchilar hamda jamoat tashkilotlari vakillari kiritilishi mumkin.

Rektor Institut kengashi raisi, prorektorlar Institut kengashi raisi o‘rinbosarlari hisoblanadi. Institut kengashi majlisi rais bo‘lмаган taqdirda, Institut rektori ko‘rsatmasiga binoan prorektorlardan biri tomonidan boshqariladi.

Institut kengashi qarorlari Institut rektori tomonidan tasdiqlanadi va uning buyruqlari bilan ijroga yo‘naltiriladi.

Institut kengashi kotibi muntazam ravishda Institut kengashi qarorlarining ijo etilishi bo‘yicha nazorat olib boradi va qabul qilingan qarorlar ijrosi bo‘yicha Institut kengashi yig‘ilishlarida hisobot beradi.

Institut kengashining ish tartibi yillik ish rejasiga muvofiq tashkil etiladi, dolzarb masalalarni ko‘rib chiqish uchun rejadan tashqari yig‘ilishlar o‘tkazilishi mumkin.

18. Quyidagilar Institut kengashining vazifalari hisoblanadi:

Institutni rivojlantirishning joriy (yillik) va istiqbolli rejalarini tasdiqlash;

kafedra hamda bo‘limlarning reja va hisobotlarini ko‘rib chiqish, ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlarini belgilash, kurslarning o‘quv rejalarini va dasturlarini, institut faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalarni muhokama qilish;

Institutning o‘quv, ilmiy-metodik va tashkiliy ishlari asosiy yo‘nalishlarini belgilash, qayta tayyorlash, malaka oshirish hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil qilish va muvofiqlashtirish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samarali tashkil etish;

qayta tayyorlash va malaka oshirishga qo‘yiladigan davlat talablari, o‘quv rejalarini va dasturlarning bajarilishini ko‘rib chiqish;

Institut kafedra va bo‘limlarini tashkil etish, o‘zgartirish va tugatish bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqish;

doktorantura yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ilmiy xodimlarning kasbiy darajasini doimiy oshirib borish masalalarini ko‘rib chiqish;

darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, ilmiy va o‘quv-metodik adabiyotlarni nashrga tavsiya etish;

Institutning professor-o‘qituvchilari va xodimlarini ilmiy unvonlarga tavsiya etish;

ilmiy darajalar berish bo‘yicha ilmiy kengashlarni tuzish, kengash a’zolari tarkibini shakllantirish va tasdiqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasiga taqdim etish;

ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashning faoliyati yuzasidan hisobotlarni eshitish, muhokama qilish va takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berish.

19. Institutda malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarining o‘quv reja va dasturlarini, o‘quv-uslubiy majmualari, nazorat materiallari, o‘quv va uslubiy qo‘llanma hamda videokontentlarni ekspertizadan o‘tkazish, tasdiqlashga tavsiya etish, amaliyatga joriy etish va nashrga tavsiya etish masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha Ilmiy-metodik kengash faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

## **V. INSTITUTNI MOLIYALASHTIRISH, MODDIY-TEXNIK TA’MINLASH, XODIMLAR MEHNATIGA HAQ TO‘LASH VA ULARNI MODDIY RAG‘BATLANTIRISH**

20. Institut:

davlat budgetidan ajratiladigan mablag‘lar;

ilmiy faoliyatga oid dasturlarni amalga oshirish uchun ajratiladigan davlat budgeti mablag‘lari;

xo‘jalik faoliyatidan hamda shartnoma asosida tadqiqotlar o‘tkazishdan tushadigan tushumlar;

xalqaro moliya va boshqa institutlar, xorijiy tashkilotlarning grantlari doirasida tushadigan mablag‘lar;

pullik ta’lim va boshqa xizmat turlari, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladi.

21. Institutning budget hamda budgetdan tashqari mablag‘lari, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar Institut xodimlari va tadqiqotchilarining xorijda malaka oshirishini moliyalashtirish manbalari etib belgilanadi.

22. Institut o‘zining budgetdan tashqari mablag‘lari hisobidan quyidagi chora-tadbirlarni moliyalashtirish huquqiga ega:

malakali xorijiy mutaxassislar va maslahatchilarni jalg etish;

ularga mehnat bozorining amaldagi konyukturasini hisobga olgan holda ish haqi to‘lash;

zamonaviy axborot va innovatsion texnologiyalarni joriy etish;

Institutning moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish va mustahkamlash;

Institut xodimlarining xorijiy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida malaka oshirishi va stajirovka o‘tashi bilan bog‘liq xarajatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirish;

Institut xodimlarining lavozim maoshiga ustama, mukofot puli, qo‘srimcha haq, moddiy yordam va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa to‘lovlarni amalga oshirish.

23. Institut va hududiy markazlar rahbarlari va o‘rnbosarlariga – oliv ta’lim muassasasining tegishincha rektori va prorektorlari uchun, tarkibiy bo‘linmalar boshliqlariga – oliv ta’lim muassasasi fakultet dekani uchun, bosh mutaxassislariga – oliv ta’lim muassasasi katta o‘qituvchisi uchun, yetakchi mutaxassislariga – oliv ta’lim muassasasi assistent o‘qituvchisi uchun, professor-o‘qituvchilar, texnik, xizmat ko‘rsatuvchi va o‘quv-yordamchi xodimlariga – oliv ta’lim muassasalarining tegishli lavozimlari uchun hamda ilmiy xodimlariga – Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy-tadqiqot institutlarining ilmiy xodimlari uchun belgilangan mehnatga haq to‘lash va moddiy rag‘batlantirish shartlari tatbiq etiladi. Bunda bir nafar o‘qituvchi hisobiga to‘g‘ri keladigan tinglovchilar soni nisbatining cheklangan normativi 1:12 nisbatda belgilanadi.

24. Institut xodimlarining lavozim maoshiga qo‘srimcha rag‘batlantiruvchi tusdagi har oylik ustama va qo‘srimcha haqlar qonun hujjatlarida belgilangan tartiblarga muvofiq amalga oshiriladi.

25. Mehnatga haq to‘lash jamg‘armasi, budjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar Institut xodimlariga ish haqi to‘lash, moddiy rag‘batlantirish va moddiy yordam ko‘rsatishni amalga oshirish manbalari hisoblanadi.

26. Institutning moddiy-texnik bazasiga unga tegishli bo‘lgan yer maydonlari, binolar, kommunikatsiya, mashina va asbob-uskunalar, transport vositalari, shuningdek, o‘quv-tarbiya jarayonida foydalilaniladigan boshqa mol-mulk kiradi.


## **VI. YAKUNIY QOIDA**

27. Nizomda belgilangan tartiblar buzilgan hollarda amaldagi qonunchilik doirasida javobgarlik belgilanadi.

28. Mazkur Nizomga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

## A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti

### TUZILMASI



Xodimlarning umumiy cheklangan soni (texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar va professor-o'qituvchilardan tashqari)  
**118 nafar** (shundan 19 ta shtat birlikni metodik xizmat ko'rsatish bo'limi metodist).

\* Kafedralar soni hamda ularda faoliyat yuritadigan professor-o'qituvchilarning shtat birliklari tinglovlchilar kontingentidan kelib chiqib belgilanadi.

\*\* Institutning byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi;

\*\*\* Texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar soni oliy ta'lim muassasalari uchun o'rnatilgan me'yordada belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi  
 Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining  
 2024 yil-“5”-iyuldaggi 210-sod buyrug‘iga  
 3-ILOVA

**A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti  
 tuzilmasi bo‘yicha lavozimlar nomi va shtat birliklari soni**

T/r	Tarkibiy bo‘linmalar va lavozimlar nomi	Shtat birliklari soni
1	Rektor	1,0
2	Akademik faoliyat bo‘yicha bиринчи проректор	1,0
3	Pedagogik innovatsiyalar bo‘yicha проректор	1,0
4	Xalqaro hamkorlik bo‘yicha проректор	1,0
5	Ishlar boshqaruvchisi	1,0
6	Ilmiy kotib	1,0
7	Bosh yuriskonsult	1,0
<b>Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat bo‘limi</b>		<b>2,0</b>
8	Bo‘lim boshlig‘i	1,0
9	Yetakchi mutaxassis	1,0
<b>Inson resurslarini rivojlantirish bo‘limi</b>		<b>4,0</b>
10	Bo‘lim boshlig‘i	1,0
11	Bosh mutaxassis	1,0
12	Yetakchi mutaxassis	2,0
<b>Moliya-iqtisod va buxgalteriya bo‘limi</b>		<b>5,0</b>
13	Bo‘lim boshlig‘i – bosh hisobchi	1,0
14	Bosh mutaxassis	2,0
15	Yetakchi mutaxassis	2,0
<b>Axborot-resurs markazi</b>		<b>7,0</b>
16	Bo‘lim boshlig‘i	1,0
17	Yetakchi mutaxassis	6,0
<b>Xalqaro hamkorlik bo‘limi</b>		<b>4,0</b>
18	Bo‘lim boshlig‘i	1,0
19	Bosh mutaxassis	1,0
20	Yetakchi mutaxassis	2,0
<b>Axborot-tahlil va ijro intizomi bo‘limi</b>		<b>5,0</b>
21	Bo‘lim boshlig‘i	1,0
22	Bosh mutaxassis	1,0
23	Yetakchi mutaxassis	3,0
<b>Ta’lim sifati nazorati bo‘limi</b>		<b>3,0</b>
24	Bo‘lim boshlig‘i	1,0
25	Bosh mutaxassis	1,0
26	Yetakchi mutaxassis	1,0

<b>Xalqaro tadqiqotlar markazi</b>		<b>10,0</b>
27	Markaz direktori	1,0
<b>Tadqiqot materiallarini tayyorlash bo‘limi</b>		<b>3,0</b>
28	<i>Bo‘lim boshlig‘i</i>	1,0
29	<i>Bosh mutaxassis</i>	1,0
30	<i>Yetakchi mutaxassis</i>	1,0
<b>Tadqiqotlarni tashkil etish bo‘limi</b>		<b>2,0</b>
31	<i>Bo‘lim boshlig‘i</i>	1,0
32	<i>Yetakchi mutaxassis</i>	1,0
<b>Tadqiqot natijalarini tahlil qilish bo‘limi</b>		<b>4,0</b>
33	<i>Bo‘lim boshlig‘i</i>	1,0
34	<i>Bosh mutaxassis</i>	1,0
35	<i>Yetakchi mutaxassis</i>	2,0
<b>Akademik faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi</b>		<b>5,0</b>
36	<i>Bo‘lim boshlig‘i</i>	1,0
37	<i>Bosh mutaxassis</i>	2,0
38	<i>Yetakchi mutaxassis</i>	2,0
<b>Rahbar kadrlarni malakasini oshirish kurslarini metodik ta’minlash bo‘limi</b>		<b>3,0</b>
39	<i>Bo‘lim boshlig‘i</i>	1,0
40	<i>Bosh mutaxassis</i>	2,0
<b>Doktorantura bo‘limi</b>		<b>3,0</b>
41	<i>Bo‘lim boshlig‘i</i>	1,0
42	<i>Bosh mutaxassis</i>	1,0
43	<i>Yetakchi mutaxassis</i>	1,0
<b>Aniq va tabiiy fanlar bo‘limi</b>		<b>6,0</b>
44	<i>Bo‘lim boshlig‘i</i>	1,0
45	<i>Bosh mutaxassis</i>	5,0
<b>Filologiya fanlari bo‘limi</b>		<b>6,0</b>
46	<i>Bo‘lim boshlig‘i</i>	1,0
47	<i>Bosh mutaxassis</i>	5,0
<b>Ijtimoiy va amaliy fanlar bo‘limi</b>		<b>4,0</b>
48	<i>Bo‘lim boshlig‘i</i>	1,0
49	<i>Bosh mutaxassis</i>	3,0
<b>Boshlang‘ich ta’lim bo‘limi</b>		<b>4,0</b>
50	<i>Bo‘lim boshlig‘i</i>	1,0
51	<i>Bosh mutaxassis</i>	1,0
52	<i>Yetakchi mutaxassis</i>	2,0
<b>STEM va virtual laboratoriyalari bo‘limi</b>		<b>3,0</b>
53	<i>Bo‘lim boshlig‘i</i>	1,0
54	<i>Bosh mutaxassis</i>	1,0
55	<i>Yetakchi mutaxassis</i>	1,0
<b>Raqamli texnologiyalarini rivojlantirish bo‘limi</b>		<b>6,0</b>
56	<i>Bo‘lim boshlig‘i</i>	1,0

57	Bosh mutaxassis	2,0
58	Yetakchi mutaxassis	3,0
<b>Matbuot, media va muzey xizmati bo‘limi</b>		<b>5,0</b>
59	Bo‘lim boshlig‘i	1,0
60	Yetakchi mutaxassis	4,0
<b>Hududlarda uzluksiz kasbiy rivojlantirishni muvoqiflashtirish bo‘limi</b>		<b>7,0</b>
61	Bo‘lim boshlig‘i	1,0
62	Bosh mutaxassis	1,0
63	Yetakchi mutaxassis	5,0
<b>Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi</b>		<b>19,0</b>
64	Metodist*	19,0
<b>Jami</b>		<b>118,0</b>

\*Ona tili va adabiyoti fani, o‘zbek tili fani (ta’lim boshqa tilda olib boriladigan maktablar uchun), rus tili va adabiyoti fani (milliy va rus maktablarda), ingliz tili fani, nemis va fransuz tili fanlari, tarix va davlat va huquq asoslari fani, tarbiya fani, matematika fani, informatika va axborot texnologiyalari fani, fizika va astronomiya fani, kimyo fani, biologiya fani, geografiya va iqtisodiy bilim asoslari fani, musiqa madaniyati fani, tasviriy san’at va chizmachilik fani, texnologiya fani, CHQBT va jismoniy tarbiya fani 1 ta shtat birligidan hamda boshlang‘ich ta’lim fani 2 ta shtat birlikdan iborat metodist shtat birliklari kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining  
2024-yil “5”-iyuldagи 210-son buyrug‘iga  
4-ILOVA

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI VA VILOYATLAR  
PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZLARI TO‘G‘RISIDAGI  
NAMUNAVIY NIZOM**

**Toshkent – 2024**

## I. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va mакtab ta’limi tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarini uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qarori asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlarining (keyingi o‘rinlarda – Hududiy markazlar) maqomi, asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlarini, faoliyatini tashkil etish va moliyalashtirish tartibini belgilaydi.

2. Hududiy markazlar rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarni uzlusiz kasbiy rivojlantirish, maktabgacha va mакtab ta’limi pedagog xodimlarini qayta tayyorlash, rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarning malakasini oshirish faoliyatları bilan shug‘ullanuvchi ta’lim tashkilotidir.

3. Hududiy markazlar O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va mакtab ta’limi vazirligi (keyingi o‘rinlarda – Vazirlik) tasarrufidagi tashkilotlar hisoblanadi. A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (keyingi o‘rinlarda – Institut) Hududiy markazlar uchun bosh ta’lim muassasasi hisoblanadi hamda o‘quv, ilmiy va metodik faoliyatiga rahbarlik qiladi.

4. Hududiy markazlarning rasmiy nomlanishi:

a) davlat tilida:

to‘liq – Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlari, qisqartmasi – Hududiy PMM;

b) rus tilida:

Центры педагогического мастерства Республики Каракалпакстан и областей, qisqartmasi – Региональные ЦПМ;

d) ingliz tilida:

to‘liq – Centers of pedagogical Skills of the Republic of Karakalpakstan and regions, qisqartmasi – RPS.

5. Hududiy markazlarda o‘qitish ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olish, ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olish, masofaviy ta’lim, dual ta’lim, mustaqil ta’lim va qonunchilikda belgilangan boshqa shakllarda amalga oshiriladi.

6. Ta’lim turi: kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.

7. Hududiy markazlar davlat ta’lim muassasasi shaklidagi yuridik shaxs hisoblanadi. U o‘zining mustaqil balansiga, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining g‘aznachiligidagi byudjet va byudjetdan tashqari shaxsiy hisob varaqlariga ega.

8. Hududiy markazlarning pochta manzili: \_\_\_\_\_. Elektron manzili:  
[.uz.](#)

## II. HUDUDIY MARKAZLARNING VAZIFALARI VA FUNKSIYALARI

9. Quyidagilar Hududiy markazlarning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Prezident maktablarida o‘quvchilarni o‘qitish, kasb-hunarga yo‘naltirish, ularda tanqidiy fikrlash, axborotni izlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha to‘plangan ilg‘or tajribalarni uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimi orqali umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga keng tatbiq etish;

pedagog xodimlarning kasbiy bilimi, ko‘nikmasi va mahoratini uzlusiz yangilab borish, zamonaviy talablarga muvofiq ta’lim sifatini ta’minlash uchun darajada kasbiy tayyorgarlikni oshirish hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini singdirish, pedagogik nufuz va kompetentlikni rivojlantirish;

pedagogning o‘z kasbiy faoliyatida zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish, shaxsiy va kasbiy axborot maydonini yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mazmunini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot hamda o‘quv-metodik ishlarni olib borish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

o‘quv-tarbiyaviy va ma’naviy-axloqiy ishlarni amalga oshirishda ilg‘or ta’lim-tarbiya texnologiyalari va jahon tajribasidan foydalanish;

pedagog xodimlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘zlashtirish uchun qo‘sishimcha shart-sharoitlar yaratish;

oliy ta’lim tashkilotlari kafedralari, maktabgacha, umumiyl o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim muassasalari bilan o‘zaro integratsiyani ta’minlash, pedagog xodimlarni qayta tayyorlash, malakasini oshirish hamda ularni yangi metodikalarga o‘rgatish tizimini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish;

pedagog xodimlarning xalqaro baholash dasturlari darajasida topshiriqlar tayyorlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, xalqaro baholash dasturlarini ta’lim jarayoniga joriy qilish va ushbu sohadagi ilg‘or tajribani ommalashtirish;

o‘quv-uslubiy materiallar, ilmiy tadqiqot natijalari, ilmiy ommabop va tadqiqot materiallarini tayyorlash va nashr etish.

10. Hududiy markazlar o‘z zimmasidagi vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi funksiyalarni bajaradi:

a) Prezident maktablarida o‘quvchilarni o‘qitish, kasb-hunarga yo‘naltirish, ularda tanqidiy fikrlash, axborotni izlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha to‘plangan ilg‘or tajribalarni uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimi orqali umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga keng tatbiq etish bo‘yicha:

Prezident maktablarida to‘plangan ilg‘or tajribalar asosida amaldagi metodikalarni takomillashtirish;

Prezident maktablarida to‘plangan ilg‘or tajribalarni umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga keng tatbiq etish, umumiy o‘rta ta’lim mazmunini takomillashtirish bo‘yicha o‘quv, ilmiy va metodik ishlarni olib borish.

b) pedagog xodimlarning kasbiy bilimi, ko‘nikmasi va mahoratini uzlusiz yangilab borish, zamonaviy talablarga muvofiq ta’lim sifatini ta’minalash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni oshirish hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini singdirish, pedagogik nufuz va kompetentlikni rivojlantirish bo‘yicha:

pedagog xodimlarning metodik ehtiyojlarini to‘laqonli qondirish maqsadida qayta tayyorlash, malaka oshirish hamda yangi metodikalarga o‘rgatishning ilg‘or shakl va usullarini joriy etish;

tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha fan dasturlari asosida qayta tayyorlash va malaka oshirishni tashkil etish hamda ular bo‘yicha zamonaviy o‘quv va metodik ma’lumotlar bazasini yaratish;

pedagog xodimlarning kasbiy ehtiyojlari asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish bo‘yicha ta’lim dasturlarini uzlusiz takomillashtirib borishda ishtirok etish;

pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning samarali shakllarini joriy etish, ilmiy va tashkiliy-metodik asoslarini ishlab chiqish.

d) pedagogning o‘z kasbiy faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, shaxsiy va kasbiy axborot maydonini yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha:

masofadan o‘qitish usullari asosida pedagog xodimlar uchun tashkil etiladigan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining tegishli o‘quv-metodik resurslarini ishlab chiqish, kurslardagi o‘quv mashg‘ulotlarini onlayn va offlayn shakllarida tashkil etishni yanada takomillashtirish;

ta’limning ilg‘or shakl, usullari, zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarini ta’lim jarayonga joriy etish asosida pedagog xodimlarning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishni tashkil qilish.

e) pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mazmunini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot hamda o‘quv-metodik ishlarni olib borish ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha:

pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha ta'lim dasturlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-tadqiqot hamda o'quv-metodik ishlarni olib borish;

pedagogika sohasida erishilgan ilmiy tadqiqot natijalarini pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayoniga joriy etish;

konferensiya, forumlar va ilmiy-amaliy anjumanlarni tashkil qilish;

*f) o'quv-tarbiyaviy va ma'naviy-axloqiy ishlarni amalga oshirishda ilg'or ta'lim-tarbiya texnologiyalari va jahon tajribasidan foydalanish bo'yicha:*

o'quv-tarbiyaviy va ma'naviy-axloqiy ishlarni amalga oshirishda umumiy o'rta ta'lim sohasidagi ilg'or tajribalarni o'rganish va mamlakatimizda joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

umumiy o'rta ta'lim sohasidagi ilg'or tajribalarni tadqiq qilish natijalariga ko'ra takliflar, tavsiyalar, qo'llanmalar va monografiyalar tayyorlash;

xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish va birgalikda ilmiy-tadqiqot ishlarni olib borish;

xorijiy yetakchi ta'lim muassasalarining mutaxassislarini taklif qilish va Hududiy markaz xodimlarini xorijiy mamlakatlarga tajriba almashish va stajirovkalarga yuborish.

*g) pedagog xodimlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish bo'yicha:*

pedagoglar uchun qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan ta'lim muassasalarida tashkil etish;

Hududiy markazlarda situatsion xona va virtual laboratoriylar faoliyatini yo'lga qo'yish.

*h) oliy ta'lim tashkilotlari kafedralari, muktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari bilan o'zaro integratsiya ta'minlash, pedagog xodimlarni qayta tayyorlash, malakasini oshirish hamda ularni yangi metodikalarga o'rgatish tizimini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo'yicha:*

pedagoglarni kasbiy rivojlantirish sohasida oliy ta'lim tashkilotlari kafedralari, muktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash;

pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarining o'quv jarayoniga shartnomaga asosida mamlakatning boshqa oliy ta'lim tashkilotlarining yuqori malakali pedagog kadrlarini va xorijiy mutaxassislarini keng jalb etish.

*i) pedagog xodimlarning xalqaro baholash dasturlari darajasida topshiriqlar*

*tayyorlash ko'nikmalarini rivojlantirish, xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy qilish va ushbu sohadagi ilg'or tajribani ommalashtirish yo'nalishida:*

pedagog xodimlarda xalqaro baholash dasturlari darajasida topshiriqlar tuzish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha kurslar tashkil etish;

ta'lim sifatini baholash bo'yicha tadbirlar, anjumanlar, seminarlar, davra suhbatlarini tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;

umumiyl o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari savodxonligini shakllantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va milliy tajribalarni o'rganish hamda amaliyatga tatbiq etish.

*j) o'quv-uslubiy materiallar, ilmiy tadqiqot natijalari, ilmiy ommabop va tadqiqot materiallarini tayyorlash va nashr etish bo'yicha:*

o'quv-uslubiy materiallar, ilmiy tadqiqot natijalari, ilmiy ommabop va tadqiqot materiallari loyihalarini tayyorlash va soha mutaxassislarini jalg qilgan holda tahrirdan o'tkazilishini ta'minlash;

mahsulotlarni nashrga tayyorlash va nashrdan chiqarilishini ta'minlash.

### **III. HUDUDIY MARKAZLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

11. Hududiy markazlar o'ziga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

maktabgacha, umumiyl o'rta, maktabdan tashqari ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayonini doimiy o'rganish, tahlil qilish va uning asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining o'quv-uslubiy hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash;

pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha muammolar, izlanishlar va yechimlariga bag'ishlangan davlat va xalqaro ilmiy-nazariy, amaliy konferensiylar, seminarlar va forumlarni o'tkazish;

pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish o'quv jarayoniga xorijiy mutaxassislarini jalg etish, yetakchi xorijiy universitetlar bilan hamkorlik o'rnatish;

pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi bo'yicha dastur, darslik, o'quv qo'llanma, ilmiy-tadqiqot ishlari to'plamlari, ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, metodik ko'rsatma va qo'llanmalar tayyorlash hamda chop ettirish;

pedagog xodimlarga qisqa muddatli maqsadli o'quv kurslarini tashkil etish hamda boshqa ta'lim xizmatlarini ko'rsatish;

ta’lim mazmuni va samaradorligini takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha Vazirlikka, mahalliy hokimiyat organlariga takliflar bilan chiqish;

moddiy-texnik bazani mustahkamlash, ma’nan eskirgan, foydalanish muddatlari o‘tib, yaroqsiz bo‘lib qolgan o‘quv adabiyotlari, jihozlari, transport va texnika vositalari, asbob-uskunalarini o‘rnatalgan tartibda hisobdan chiqarish;

aholiga, turli tashkilotlarga pulli ta’lim xizmatlari va boshqa xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek, qonunda taqiqlanmagan, asosiy faoliyatga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydigan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanish;

byudjet mablag‘lari va boshqa qonuniy manbalardan ishlab topilgan pul mablag‘larini qonun hujjatlariga muvofiq maqsadli sarflash;

Hududiy markazlarning ma’muriy-boshqaruв xodimlari, metodistlar, professor-o‘qituvchilar va boshqa xodimlarining maoshlariga belgilangan tartibda rag‘batlantiruvchi ustamalar tayinlash;

Hududiy markazlar xodimlarini mehnatdagi yuqori ko‘rsatkichlari uchun davlat va idoraviy mukofotlar bilan taqdirlash to‘g‘risida Vazirlikka takliflar kiritish;

hamkorlik doirasida mualliflik ishlarini ishlab chiqish uchun tajribali mutaxassis va pedagog xodimlarni jalg qilish (zaruriyatga ko‘ra shartnoma asosida);

qonunchilikka kiritilgan o‘zgartirishlarga muvofiq Hududiy markazlar o‘quv dasturlariga tuzatishlar kiritish;

o‘ziga yuklatilgan vazifalar doirasida xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshirish;

tajribali xorijiy mutaxassislarni jalg qilgan holda, ilg‘or chet el tajribasini joriy etish maqsadida, ta’lim muassasalari pedagog xodimlari malakasini doimiy oshirish uchun qisqa muddatli va maqsadli kurslarni tashkil etish;

ilg‘or metodik va innovatsion pedagogik texnologiyalarni o‘rganish va o‘qitish, tajriba almashish uchun tajriba orttirish, seminar va konferensiyalarda ishtiroy etish uchun xodimlarni xorijiy davlatlarga yuborish;

maktabgacha va maktab ta’limi tizimining dolzarb va istiqbolli vazifalarini hal qilish uchun tuzilgan ishchi guruhlarda ishtiroy etish;

o‘z faoliyatini keng yoritish maqsadida rasmiy veb-saytlar yaratish, ijtimoiy tarmoqlarda sahifalar ochish;

ta’lim-tarbiya jarayoniga ta’sir etmagan holda bo‘sh turgan bino va inshootlar, transport vositalari, texnik anjom va uskunalarini yuqori turuvchi tashkilotning ruxsati bilan belgilangan tartibda ijaraga berish;

o‘zini-o‘zi mablag‘ bilan ta’minlaydigan xo‘jalik hisobidagi tarkibiy bo‘linmalar (markazlar va shu kabilar) tashkil etish va tugatish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish ;

xodimlar sog‘lig‘ini muhofaza qilish maqsadida sog‘lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish.

12. Hududiy markazlar quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

Hududiy markazlarga yuklatilgan vazifalarni o‘z vaqtida sifatli va to‘liq bajarilishini ta’minlash;

Hududiy markazlar faoliyatini muntazam takomillashtirib borish, o‘quv, metodik, ilmiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash yuzasidan chora-tadbirlar, dasturlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish;

tasdiqlangan ish rejalarini, malaka oshirish, qayta tayyorlash va menejerlik kurslari o‘quv reja va dasturlarining to‘liq va sifatli bajarilishini ta’minlash;

ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik, innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish, o‘quv mashg‘ulotlarini sifatli, samarali va mazmunli tashkil etish;

Hududiy markazlarda tinglovchilarining ta’lim olishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning xavfsizligi va salomatligini muhofaza qilish choralarini ko‘rish;

Hududiy markazlar xodimlarining qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralarini ko‘rish;

Hududiy markazlar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquq va majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

#### **IV. HUDUDIY MARKAZLAR FAOLIYATINI TASHKIL QILISH VA BOSHQARISH**

13. Hududiy markazlar o‘z faoliyati bo‘yicha Vazirlikka bo‘ysunadi va hisobot beradi.

14. Hududiy markazlarga Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri tomonidan lavozimiga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan direktor rahbarlik qiladi. Direktor barcha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarida, mahalliy ijro etuvchi hokimiyyat organlarida, shuningdek xorijiy mamlakatlarda Hududiy markaz nomidan ish yuritadi.

15. Quyidagilar Hududiy markaz direktorining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

Hududiy markaz faoliyatiga umumiylar rahbarlik qilish, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek mazkur Nizom talablariga rioya qilish;

Hududiy markaz nomidan xo‘jalik shartnomalarini tuzish, xorijiy va mahalliy tashkilotlarda Hududiy markaz manfaatlarini ifoda etish, shuningdek, o‘z faoliyati to‘g‘risida Vazirlilikka hisobotlar taqdim etish;

qonunchilikka muvofiq o‘z vakolatlari doirasida Hududiy markazning moliyaviy mablag‘larini tasarruf etish;

Hududiy markazga ajratilgan byudjet mablag‘larining smetada belgilangan xarajatlar yo‘nalishlari bo‘yicha ishlatalishini ta’minlash;

g‘aznachilik bo‘linmalarida Hududiy markazning hisob-raqamlarini va boshqa bank hisob-raqamlarini ochish;

o‘z vakolatlari doirasida buyruqlar chiqarish va ishonchnomalar berish;

Hududiy markaz xodimlarini belgilangan tartibda lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish;

direktor o‘rinbosarlari va boshqa mansabdor shaxslarning vakolatlarini belgilash, ular o‘rtasida majburiyatlarni taqsimlash, tarkibiy bo‘limlar va kafedralarga rahbarlik qilish borasida shaxsiy javobgarlik darajasini belgilash;

direktor o‘rinbosarlari, bo‘lim boshliqlari va kafedra mudirlarining hisobotlarini eshitish;

samarali mehnat qilgan xodimlarni rag‘batlantirish, o‘z ishiga mas’uliyatsizlik bilan yondashgan, o‘ziga topshirilgan vazifalarni o‘z vaqtida bajarmagan xodimlarni o‘rnatilgan tartibda intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini hal etish;

Hududiy markaz Kengashi tavsiyalari asosida o‘quv rejalar, dasturlar va ilmiy-metodik ishlar rejalarini tasdiqlash va ma’ruzalar, laboratoriya mashg‘ulotlari, ilmiy-amaliy ishlarning bajarilishi ustidan nazorat qilish;

Hududiy markazning o‘quv-metodik va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda tinglovchilarga maishiy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ishlarni tashkil etish;

Hududiy markaz ichki tartib-qoidalarini o‘rnatilgan tartibda tasdiqlash hamda ushbu qoidalar xodimlar va tinglovchilar tomonidan bajarilishini nazorat qilish;

jamoada sog‘lom ma’naviy va ijodiy muhitni shakllantirish chora-tadbirlarini ko‘rish;

Hududiy markazlar faoliyatiga qo‘yilgan sanitariya-gigiyena talablariga, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya qilinishini ta’minlash;

pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishga qo‘yilgan davlat talablari, o‘quv rejalarini va dasturlar, boshqa o‘quv-metodik hujjatlarning o‘quv jarayoniga joriy etilishini ta’minlash;

Hududiy markazda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot va ilmiy-metodik ishlarni muvofiqlashtirish;

Institut, hududiy mактабгача va мактаб та’лими boshqarmasi va hududdagi oliy ta’lim tashkilotlari bilan birgalikda “Ustoz-shogird” tizimi orqali ustuvor bo‘lgan fan sohalari (matematika, kimyo, biologiya, fizika, ona tili va adabiyot, xorijiy tillar, psixologiya, boshlang‘ich ta’lim) bo‘yicha pedagog xodimlar va oliy ta’lim tashkilotlari professor-o‘qituvchilari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik aloqalarini kengaytirish choralarini ko‘rish;

bo‘limlar, kafedralar, professor-o‘qituvchilar va xodimlarning vazifalari, mehnat qilish va boshqa huquqlari, funksional vazifalarini tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlarni belgilangan tartibda tasdiqlash;

Hududiy markaz direktoriga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalar ham yuklatilishi mumkin.

16. Direktor o‘rnbosarlari Maktabgacha va mактаб та’лими vazirining buyrug‘i bilan, qonunchilikda belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Hududiy markaz direktori mehnat ta’tilida, xizmat safarida yoki boshqa sabablar bilan ishda bo‘limgan davrda uning vakolatlarini vazifa taqsimotlariga ko‘ra direktor o‘rnbosarlaridan biri vaqtinchalik bajaradi.

17. Hududiy markaz faoliyatiga tegishli asosiy masalalarni ko‘rib chiqish uchun Hududiy markaz Kengashi tashkil etiladi.

18. Hududiy markaz Kengashi faoliyatga doir asosiy masalalar ko‘rib chiqadigan oliy boshqaruв organi hisoblanadi. Uning tarkibi Hududiy markaz direktorining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi. Kengash tarkibiga direktor o‘rnbosarlari, kafedralar mudirlari, bo‘lim boshliqlari va xodimlari, professor-o‘qituvchilar hamda jamoat tashkilotlari vakillari kiritilishi mumkin.

19. Hududiy markaz direktori Kengash raisi, direktor o‘rnbosarlari Kengash raisi o‘rnbosarlari hisoblanadi. Rais biror bir sabablar bilan kengashda bo‘limgan taqdirda, uning ko‘rsatmasiga binoan majlis o‘rnbosarlardan biri tomonidan boshqariladi.

20. Hududiy markaz Kengashi qarorlari direktor tomonidan tasdiqlanadi va uning buyruqlari bilan ijroga yo‘naltiriladi.

21. Hududiy markaz Kengashi kotibi muntazam ravishda Kengash qarorlarining ijro etilishi bo‘yicha nazorat olib boradi va qarorlar ijrosi bo‘yicha yig‘ilishlarda hisobot beradi.

22. Hududiy markaz Kengashining ish tartibi yillik ish rejasiga muvofiq tashkil etiladi, dolzARB masalalarni ko‘rib chiqish uchun rejadan tashqari yig‘ilishlar o‘tkazilishi mumkin.

23. Quyidagilar Hududiy markaz Kengashining asosiy vazifalari hisoblanadi:

Hududiy markazni rivojlantirishning joriy (yillik) va istiqbolli rejalarini tasdiqlash;

kafedralar hamda bo‘limlarning reja va hisobotlarini ko‘rib chiqish, kurslarning o‘quv rejalarini va dasturlarini, Hududiy markaz faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalarni muhokama qilish;

Hududiy markazning o‘quv-metodik va tashkiliy ishlari asosiy yo‘nalishlarini belgilash, qayta tayyorlash va malaka oshirish ishlarni tahlil qilish va ularni muvofiqlashtirish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni bugungi kun talablari darajasida tashkillashtirish;

qayta tayyorlash va malaka oshirishga qo‘yiladigan davlat talablari, o‘quv rejalarini va dasturlarning tarkibiy bo‘linmalar tomonidan bajarilishini ko‘rib chiqish;

kafedra va bo‘limlarini tashkil etish, o‘zgartirish va tugatish bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqish;

yuqori malakali ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash, ilmiy xodimlarning kasbiy darajasini doimiy oshirib borish masalalarini ko‘rib chiqish;

darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy, o‘quv-metodik adabiyotlarni nashrga tavsiya etish;

Hududiy markazning professor-o‘qituvchilarini ilmiy unvonlarga tavsiya etish.

## **V. HUDUDIY MARKAZLARNI MOLIYALASHTIRISH, MODDIY-TEXNIK TA’MINLASH, XODIMLAR MEHNATIGA HAQ TO‘LASH VA MODDIY RAG‘BATLANTIRISH**

24. Hududiy markazlar:

davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘lar;

ilmiy faoliyatga oid dasturlarni amalga oshirish uchun ajratiladigan davlat byudjeti mablag‘lari;

xo‘jalik faoliyatidan hamda shartnoma asosida tadqiqotlar o‘tkazishdan tushadigan tushumlar;

xalqaro moliya va boshqa institutlar, xorijiy tashkilotlarning grantlari doirasida tushadigan mablag‘lar;

pullik ta’lim va boshqa xizmat turlari, shuningdek, qonunchilikda ta’qiqlanmagan mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladi.

25. Hududiy markaz o‘zining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan quyidagi chora-tadbirlarni moliyalashtirish huquqiga ega:

malakali xorijiy mutaxassislar va maslahatchilarini jalg etish;

ularga mehnat bozorining amaldagi kon’yunkturasini hisobga olgan holda ish haqi to‘lash;

zamonaviy axborot va innovatsion texnologiyalarni joriy etish;

Hududiy markazning moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish va mustahkamlash;

Hududiy markaz xodimlarining xorijiy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida malaka oshirishi va stajirovka o‘tashi bilan bog‘liq xarajatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirish;

Hududiy markaz xodimlarining lavozim maoshiga ustama, mukofot puli, qo‘srimcha haq, moddiy yordam va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa to‘lovlarni amalga oshirish.

26. Hududiy markazlar direktori va o‘rinbosarlariga – oliy ta’lim muassasasining tegishincha rektori va prorektorlari uchun, tarkibiy bo‘linmalar boshliqlariga – oliy ta’lim muassasasi fakulitet dekani uchun, bosh mutaxassislariga – oliy ta’lim muassasasi katta o‘qituvchisi uchun, yetakchi mutaxassislariga – oliy ta’lim muassasasi assistent o‘qituvchisi uchun, professor-o‘qituvchilari, texnik, xizmat ko‘rsatuvchi va o‘quv-yordamchi xodimlariga – oliy ta’lim muassasalarining tegishli lavozimlari uchun belgilangan mehnatga haq to‘lash va moddiy rag‘batlantirish shartlari tatbiq etiladi. Bunda bir nafar o‘qituvchi hisobiga to‘gri keladigan tinglovchilar soni nisbatining cheklangan normativi 1:12 nisbatda belgilanadi.

27. Hududiy markazlar xodimlarining lavozim maoshiga qo‘srimcha rag‘batlantiruvchi tusdagi har oylik ustama va qo‘srimcha haqlar qonun hujjatlarida belgilangan tartiblarga muvofiq amalga oshiriladi.

28. Mehnatga haq to‘lash jamg‘armasi, byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar Hududiy markazlar xodimlariga ish haqi to‘lash, moddiy rag‘batlantirish va moddiy yordam ko‘rsatishni amalga oshirish manbalari hisoblanadi.


29. Hududiy markazlarning moddiy-texnik bazasiga unga tegishli bo‘lgan yer maydonlari, binolar, kommunikatsiya, mashina va asbob-uskunalar, transport vositalari, shuningdek, o‘quv-tarbiya jarayonida foydalilaniladigan boshqa mol-mulk kiradi.

## **VI. YAKUNIY QOIDA**

30. Nizomda belgilangan tartiblar buzilgan hollarda amaldagi qonunchilik doirasida javobgarlik belgilanadi.

31. Mazkur Nizomga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlarning  
 TUZILMASI**



\* Xodimlarning umumiyligi cheklangan soni (texnik, xizmat ko'rsatuvchi, o'quv-yordamchi xodimlar va professor-o'qituvchilardan tashqari) 45-47 nafar, shu jumladan, boshqaruva xodimlari 24-25 nafar (Sirdaryo, Navoiy va Buxoro viloyatlarida 24 nafar).

Metodistlar 20-21 nafar (Qoraqalpog‘iston Respublikasida 21 nafar).

Kafedralar soni hamda ularda faoliyat yuritadigan professor-o'qituvchilarning shtat birliklari tinglovchilar kontingenti asosida belgilanadi.

\*\* Markazning budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi.

\*\*\* Texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar soni oliy ta'lim muassasalari uchun o'rnatilgan me'yordarda belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi  
 Maktabgacha va mакtab ta’limi vazirining  
 2024-yil “5” -iyuldagи 210-son buyrug‘iga  
 6-ILOVA

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlarining  
 tuzilmasi bo‘yicha lavozimlar nomi va shtat birliklari soni**

T/r	Tarkibiy bo‘linmalar va lavozimlar nomi	Shtat birliklari soni
1	Direktor	1,0
2	Akademik faoliyat bo‘yicha o‘rinbosar	1,0
3	Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish bo‘yicha o‘rinbosar	1,0
4	Matbuot kotibi	1,0
5	Yuriskonsult	1,0
<b>Inson resurslarini rivojlantirish bo‘yicha bosh mutaxassis</b>		<b>1,0</b>
6	Bosh mutaxassis	1,0
<b>Moliya-iqtisod va buxgalteriya bo‘limi</b>		<b>3,0</b>
7	Bo‘lim–boshlig‘i – bosh hisobchi	1,0
8	Bosh mutaxassis	1,0
9	Yetakchi mutaxassis	1,0
<b>Axborot-resurs markazi</b>		<b>1,0</b>
10	Bosh mutaxassis	1,0
<b>Fanlarni rivojlantirish bo‘limi</b>		<b>2,0</b>
11	Bo‘lim boshlig‘i	1,0
12	Bosh mutaxassis	1,0
<b>Maktabgacha ta’limni muvofiqlashtirish bo‘limi</b>		<b>2,0</b>
13	Bo‘lim boshlig‘i	1,0
14	Yetakchi mutaxassis	1,0
<b>Ijro intizomi bo‘yicha bosh mutaxassis</b>		<b>1,0</b>
15	Bosh mutaxassis	1,0
<b>Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish bo‘limi</b>		<b>2,0</b>
16	Bosh mutaxassis	1,0
17	Yetakchi mutaxassis	1,0
<b>Ta’lim sifati nazorati bo‘limi</b>		<b>2,0</b>
18	Bo‘lim boshlig‘i	1,0
19	Bosh mutaxassis	1,0
<b>Uzluksiz kasbiy ta’limni tashkil etish bo‘limi</b>		<b>2,0</b>
20	Bo‘lim boshlig‘i	1,0
21	Bosh mutaxassis	1,0

<b>Akademik faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi</b>		<b>3-4</b>
22	Bo‘lim boshlig‘i	1,0
23	Bosh mutaxassis	1,0
24	Yetakchi mutaxassis*	2,0
<b>Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi</b>		<b>20-21</b>
25	Metodist**	21-22
<b>Jami</b>		<b>45-47</b>

\* Ushbu lavozim Sirdaryo, Navoiy va Buxoro viloyatlarida pedagogik mahorat markazlarida bir shtat birlikdan kiritiladi.

\*\* Ona tili va adabiyoti fani, qardosh tillar fani, o‘zbek tili fani (ta’lim boshqa tilda olib boriladigan maktablar uchun), rus tili va adabiyoti fani (milliy va rus maktablarda), ingliz tili fani, nyemis va fransuz tili fanlari, tarix va davlat va huquq asoslari fani, tarbiya fani, matematika fani, informatika va axborot texnologiyalari fani, fizika va astronomiya fani, kimyo fani, biologiya fani, gyeografiya va iqtisodiy bilim asoslari fani, musiqa madaniyati fani, tasviriy san’at va chizmachilik fani, texnologiya fani, CHQBT va jismoniy tarbiya fani bo‘yicha 1 ta shtat birligidan va boshlang‘ich ta’lim fanidan 2 ta shtat birlikdan iborat metodist shtat birliklari kiritiladi.

Bunda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi pedagogik mahorat markaziga bir shtat birlikdan iborat qoraqalpoq tili fani metodisti ham kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining  
2024-yil “5”-iyuldagi 210-son buyrug‘iga  
7-ILOVA

**MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR  
VA MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI TO‘G‘RISIDA**

**NIZOMI**

**Toshkent – 2024**

## I. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu Nizom Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti (keyingi o‘rinlarda - Maktabgacha ta’lim instituti) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlarini tartibga soladi, shuningdek, faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Maktabgacha ta’lim instituti Maktabgacha va mакtab ta’limi vazirligining (keyingi o‘rinlarda – Vazirlik) bo‘ysunuvidagi tashkilot hisoblanadi hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, doktorantura yo‘nalishlari bo‘yicha yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, “Maktabgacha ta’limda innovatsiyalar” jurnali faoliyatini tashkil etish, yangi ilg‘or pedagogik texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish masalalarida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi ta’lim tashkilotidir.

3. Maktabgacha ta’lim institutining rasmiy nomlanishi:

a) davlat tilida: to‘liq nomi – Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, qisqartirilgan nomi – MTTDMQTMOI.

b) rus tilida: to‘liq nomi – Институт переподготовки и повышения квалификации директоров и специалистов дошкольных образовательных организаций, қисқартмаси – ИППКДСДОО;

d) ingliz tilida: to‘liq nomi – Institute for retraining and advanced training of directors and specialists of preschool educational organizations, qisqartmasi – IRATDSPEO.

4. Maktabgacha ta’lim institutida o‘qitish ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olish, ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olish, masofaviy ta’lim, dual ta’lim, mustaqil ta’lim va qonunchilikda belgilangan boshqa shakllarda amalga oshiriladi.

5. Maktabgacha ta’lim instituti o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlikning buyruqlariga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga va mazkur Nizomga amal qiladi.

6. Institut davlat muassasasi shaklidagi yuridik shaxs hisoblanadi, alohida mol-mulkka, O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri va o‘z nomi tushirilgan muhr, shtamplari va blankalariga, o‘z ramzi, mustaqil balansiga, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligidagi hisob raqamlariga, bank, shu jumladan chet el valyutasidagi hisob raqamlariga ega bo‘ladi.

7. Maktabgacha ta’lim instituti ta’lim muassasasi sifatida maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlari va pedagog xodimlarini qayta tayyorlaydi va ularning malakasini oshiradi, maktabgacha ta’lim tizimi uchun kadrlarni doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik orqali tayyorlaydi, ushbu yo‘nalishda o‘quv, ilmiy-metodik, ilmiy-tadqiqot, ma’naviy-ma’rifiy va tashkiliy-metodik ishlarni amalga oshiradi.

## **II. MAK TABGACHA TA’LIM INSTITUTINING VAZIFALARI VA FUNKSIYALARI**

8. Quyidagilar Maktabgacha ta’lim institutining asosiy vazifalari hisoblanadi:
- maktabgacha ta’lim tizimi direktorlari va pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, maktabgacha ta’lim tizimi uchun ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, maktabgacha ta’lim tizimini metodik ta’minlash, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish;
  - o‘quv-tarbiya jarayoniga, jumladan, davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari amaliyotiga zamонавиу innovatsion pedagogik texnologiyalar, o‘qitish va tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
  - maktabgacha ta’limning milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarini aks ettiruvchi o‘quv-metodik, didaktik materiallarni ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirish;
  - maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha metodik ishlarni tashkil etish;
  - o‘quv-tarbiyaviy va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish hamda nazorat qilish bo‘yicha direktorlar va mutaxassislarning ko‘nikmalarini takomillashtirish va maktabgacha ta’lim sifatini baholashga o‘rgatish;
  - xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, konferensiyalar, ko‘rgazmalar va boshqa tadbirlar o‘tkazish orqali maktabgacha ta’lim sohasida mamlakatimiz yutuqlarini xalqaro darajada keng yoritish, mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan xalqaro maktabgacha ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlik qilish;
  - maktabgacha ta’lim bo‘yicha xorijiy yuqori malakali pedagoglarni jalb qilgan holda o‘quv seminarlarini tashkil etish.

9. Maktabgacha ta’lim instituti o‘ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlari va pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini metodik ta’minlash, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish sohasida:

o‘quv-tarbiya jarayoniga zamонавиу ta’lim dasturlari va texnologiyalarni joriy etish hamda matabda o‘qishga tayyorlash sifatini yaxshilash orqali bolalarni

maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini oshirish, har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik, jismoniy kamol toptirish maqsadida maktabgacha ta’lim tashkiloti direktor va mutaxassislari uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

ilg‘or xorijiy tajribani joriy etish maqsadida maktabgacha ta’lim tashkiloti direktor va mutaxassislarining malakasini uzluksiz oshirish uchun qisqa muddatli va maqsadli kurslarni tashkil etish;

menejerlik kurslari dasturiga asosan maktabgacha ta’limni boshqarish sohasida direktor va mutaxassislar bilimlarini oshirish;

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni rivojlantirish istiqbollarini prognozlashtirish, variativ va invariant o‘quv dasturlarini ishlab chiqish;

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot va o‘quv-metodik ishlar olib borish;

ilmiy-texnik rivojlanish, jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib, tarbiyalanuvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlarini, shuningdek, ularning o‘zlashtirish imkoniyatlarini hisobga olib, maktabgacha ta’limga qo‘yilgan davlat ta’lim talablari, o‘quv dasturlari va darsliklarni uzluksiz takomillashtirilishini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash;

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini va uni amalga oshirish mexanizmlarini yanada rivojlantirishni nazarda tutuvchi takliflarni vazirlikka kiritish;

davlat ta’lim standartlari hamda kasbga doir bilim va ko‘nikmalarga qo‘yilgan talablar asosida mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda kasbi bo‘yicha ma’lumotga ega bo‘imagan maktabgacha ta’lim muassasalari xodimlari uchun qo‘srimcha ixtisoslik bo‘yicha qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish;

ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash mazmuni va sifatini takomillashtirishga, xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihibarini ishlab chiqadi va belgilangan tartibda vazirlikka kiritish;

b) o‘quv-tarbiya jarayoniga, jumladan davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari amaliyotiga zamонавиј innovatsion pedagogik texnologiyalarni, o‘qitish va tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish sohasida:

ta’lim dasturlarining uzluksizligi va izchilligini hisobga olgan holda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan o‘qitishning interaktiv usullaridan foydalanish orqali maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv rejalarini va dasturlarni, o‘quv-metodik va normativ hujjatlarni ishlab chiqish;

maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha xalqaro tajribani, shuningdek, jahonning

eng yaxshi ta’lim tashkilotlari yutuqlarini umumlashtirish asosida ilmiy asoslangan innovatsiyalarni joriy etish;

maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda ta’lim jarayonining yuqori darajasini ta’minlash, ilmiy tadqiqotlarga intilishni, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini va ijodiy mahoratni rivojlantirish;

d) milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi o‘quv-metodik, didaktik materiallarni ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirish sohasida:

o‘quv dasturlari, o‘quv, o‘quv-metodik adabiyotlar tayyorlash va nashr etish hamda ularni ta’lim amaliyotiga joriy etish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash;

ilg‘or pedagogik texnologiyalarni, zamonaviy o‘quv-metodik komplekslarni yaratish va o‘quv-tarbiya jarayonini didaktik ta’minlash;

milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va yoshlikdan kitob o‘qishga qiziqish uyg‘otuvchi badiiy adabiyotlardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

darsliklar va o‘quv-metodik materiallarni ishlab chiqish, ekspertizadan o‘tkazish jarayonini tashkil etish va muvofiqlashtirish hamda ularni o‘quv-tarbiya jarayoniga joriy etishda metodik yordam ko‘rsatish;

maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari uchun o‘yinlar va o‘yinchoqlar sonini ko‘paytirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

e) maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha metodik ishlarni tashkil etish sohasida:

o‘qitishning zamonaviy shakllarini, innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan holda o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda maktabgacha ta’lim tashkilotlariga metodik yordam ko‘rsatish;

o‘quv-tarbiya jarayoni sifatini oshirishga, bolalar va pedagoglar iste’dodlarini, qobiliyatlarini rivojlantirish va rag‘batlantirishga qaratilgan tadbirlar (konferensiylar, forumlar, musobaqalar, ko‘rgazmali olimpiadalar, seminar-treninglar, tanlovlardan) tashkil etish;

pedagoglarning o‘z sohasini bilishini rivojlantirish va oshirishda o‘qitishning interaktiv va zamonaviy usullarini, metodik materiallarni, metodik yordam ko‘rsatishning samarali shakllarini ishlab chiqish, sinab ko‘rish va o‘quv-tarbiya jarayoniga joriy etish;

maktabgacha ta’lim tashkilotlarida xonalar, sport zallari va maydonlari, asbob-uskunalar va kompyuter texnikasini ekspluatatsiya qilish va ulardan foydalanish bo‘yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqish;

qayta tayyorlash va malaka oshirishning samarali shakllarini (aralash, masofaviy, yakka tartibda o‘qitish (platforma), “ustoz-shogird” va boshqa shakllarini) joriy etishning ilmiy-metodik va tashkiliy-metodik asoslarini ishlab chiqish;

metodik materiallar tayyorlash, pedagogik va ilmiy-metodik axborotni umumlashtirish, ilmiy-metodik jurnallar, gazetalar, metodik to‘plamlar va qo‘llanmalar nashr etish;

davlat ta’lim talablarini, o‘quv rejalari va dasturlarni, darsliklar va o‘quv-metodik materiallarni o‘rganish hamda muhokama qilish, takliflar kiritish va Maktabgacha ta’lim institutining ilmiy-metodik kengashida xulosalar qabul qilish;

f) o‘quv-tarbiyaviy va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishni nazorat qilish bo‘yicha direktor va mutaxassislarning ko‘nikmalarini takomillashtirish va ta’lim sifatini baholashga o‘rgatish sohasida:

o‘quv-tarbiyaviy jarayonni va metodik faoliyat holatini o‘rganish, muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha direktor va mutaxassislar uchun o‘quv-tarbiyaviy va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish hamda nazorat qilishga doir metodik ko‘rsatmalar va tavsiyalar ishlab chiqish;

maktabgacha ta’lim tashkilotlari sifatini baholash materiallari va natijalarni tahlil qilish usullarini ishlab chiqish;

metodik materiallarni tayyorlash va davlat ta’lim standartlari talablariga muvofiq bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish ustidan monitoring olib borishda ishtirok etish;

aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha metodik materiallarni ishlab chiqish, bolalar va pedagoglarning ta’lim ehtiyojlarini aniqlashda metodik yordam ko‘rsatish;

g) xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, konferensiyalar, ko‘rgazmalar va boshqa tadbirlar o‘tkazish orqali maktabgacha ta’lim sohasida mamlakatimiz yutuqlarini xalqaro darajada keng yoritish, mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan xalqaro maktabgacha ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlik qilish sohasida:

xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, maktabgacha ta’lim sohasida mamlakatimiz yutuqlarini xalqaro darajada keng yoritish;

konferensiyalar, ko‘rgazmalar va boshqa tadbirlar o‘tkazish, xalqaro maktabgacha ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlik qilish;

maktabgacha ta’lim sohasida milliy va xorijiy tashkilotlar bilan belgilangan tartibda sheriklik faoliyatini yuritish.

### **III. MAK TABGACHA TA’LIM INSTITUTINING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI**

10. Maktabgacha ta’lim instituti o‘ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

ta’lim mazmunini takomillashtirish va samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish va vazirlikka kiritish;

maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha dasturlar, o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy asarlar to‘plamlari, ilmiy-amaliy konferensiyalar materiallari, metodik ko‘rsatmalar hamda qo‘llanmalar tayyorlash va nashr etish;

aholiga, turli tashkilotlarga pulli ta’lim xizmatlari va boshqa xizmatlarni ko‘rsatish, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan va asosiy faoliyatga zid bo‘lмаган faoliyatning barcha turlarini amalga oshirish;

Maktabgacha ta’lim institutida mavjud kafedralar qoshida innovatsion markazlar ochish (xususan metodik, pedagogik va psixologik xizmat ko‘rsatish);

kafedralar va bo‘limlarni tashkil etish va mavjudlarini tugatish, tasdiqlangan shtat jadvali doirasida shtat birliklarini bir bo‘linmadan boshqa bo‘linmaga o‘tkazish bo‘yicha vazirlikka takliflar kiritish;

professor-o‘qituvchilar va xodimlarga belgilangan tartibda rag‘batlantiruvchi ustamalar tayinlash;

xodimlarni yuksak mehnat ko‘rsatkichlari uchun davlat va idoraviy mukofotlarga tavsiya etish bo‘yicha Vazirlikka takliflar kiritish;

gayta tayyorlash va malaka oshirish bo‘yicha faoliyat sifatini va samaradorligini ta’minlash chora-tadbirlarini ko‘rish;

hamkorlik doirasida mualliflik loyihibarini ishlab chiqishga tajribali mutaxassislar, pedagoglar va xodimlarni jalb qilish (zarur bo‘lsa shartnomalar asosida);

qonun hujjatlariga kiritilgan o‘zgartishlarga muvofiq o‘quv dasturlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;

o‘z vakolatlari doirasida xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;

xorijlik tajribali pedagog-mutaxassislarini jalb qilgan holda ilg‘or xorijiy tajribani joriy etish maqsadida maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlari va mutaxassislar uchun qisqa muddatli va aniq maqsadga yo‘naltirilgan kurslar tashkil etish;

xodimlarni tajriba orttirish, innovatsion pedagogik texnologiyalar va ilg‘or metodikalarni o‘rganish maqsadida xorijiy stajirovkalarga yuborish;

maktabgacha ta’limni rivojlantirish va uning dolzarb muammolarini hal qilish uchun tashkil etilgan ishchi guruhlarda ishtirot etish;

o‘z faoliyatini keng yoritish maqsadida rasmiy veb-saytlar yaratish, ijtimoiy tarmoqlarda sahifalar yuritish.

Maktabgacha ta’lim instituti qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

11. Maktabgacha ta’lim instituti quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

Maktabgacha ta’lim institutiga yuklatilgan vazifalarni o‘z vaqtida sifatli va to‘liq bajarilishini ta’minalash;

Maktabgacha ta’lim instituti faoliyatini muntazam takomillashtirib borish, o‘quv, metodik, ilmiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash yuzasidan chora-tadbirlar, dasturlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish;

tasdiqlangan ish rejalarini, malaka oshirish, qayta tayyorlash va menejerlik kurslari o‘quv reja va dasturlarining to‘liq va sifatli bajarilishini ta’minalash;

ta’lim jarayoniga zamонавиу педагогик, innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish, o‘quv mashg‘ulotlarini sifatli, samarali va mazmunli tashkil etish;

tinglovchilarning ta’lim olishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning xavfsizligi va salomatligini muhofaza qilish choralarini ko‘rish;

maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlari lavozimiga nomzodlarning bilim va ko‘nikmalarini baholash hamda baholash natijasidan kelib chiqib tegishli darajadagi sertifikatlarni berish;

Maktabgacha ta’lim instituti xodimlarining qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralarini ko‘rish;

Maktabgacha ta’lim instituti qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquq va majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

#### **IV. MAKTABGACHA TA’LIM INSTITUTI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH**

12. Maktabgacha ta’lim instituti o‘z faoliyatida bevosita vazirlikka bo‘ysunadi va unga hisobot beradi.

13. Maktabgacha ta’lim institutiga O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vaziri tomonidan lavozimiga tayinlanadigan va lavozimididan ozod etiladigan rektor rahbarlik qiladi.

14. Quyidagilar Maktabgacha ta’lim instituti rektorning asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, ushbu Nizom talablariga rioya qilish;

Maktabgacha ta’lim instituti faoliyatiga, o‘quv-metodik, ilmiy-tadqiqot, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samarali tashkil etilishiga umumiyo rahbarlikni amalga oshirish;

xodimlarni belgilangan tartibda lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish;

prorektorlar va boshqa mansabdor shaxslarning vakolatlarini belgilash, ular o‘rtasida majburiyatlarni taqsimlash, tarkibiy bo‘limlar, markazlar va kafedralarga rahbarlik qilish borasida prorektorlar va boshqa mansabdor shaxslarning shaxsiy javobgarlik darajasini belgilash;

Maktabgacha ta’lim instituti nomidan turli tashkilot va muassasalar bilan xo‘jalik shartnomalari tuzish, vazirlikda Maktabgacha ta’lim instituti manfaatlarini ifodalash, shuningdek faoliyat yuzasidan hisobotlar taqdim etish;

hududiy pedagogik mahorat markazlarining maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish faoliyatini muvofiqlashtirish;

Maktabgacha ta’lim instituti Ilmiy-metodik kengashi tavsiyalari asosida o‘quv rejalar, dasturlar va ilmiy-metodik ishlar rejalarini tasdiqlash;

o‘z vakolatlari doirasida buyruqlar chiqarish va ishonchnomalar berish;

xodimlarni rag‘batlantirish, intizomiy jazo choralarini qo‘llash to‘g‘risida qaror qabul qilish;

qayta tayyorlash va malaka oshirishga qo‘yilgan davlat ta’lim talablari, o‘quv rejalar va dasturlar, boshqa o‘quv-metodik hujjatlarning o‘quv jarayoniga joriy etilishini ta’minalash;

Maktabgacha ta’lim institutida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot va ilmiy-metodik ishlarni muvofiqlashtirish;

maishiy xizmatlar ko‘rsatishni tashkil etish, o‘quv-metodik va moddiy-texnik bazani mustahkamlash va rivojlantirish ishlarini amalga oshirish;

Maktabgacha ta’lim instituti ichki tartib qoidalarini tasdiqlash hamda ushbu qoidalar xodimlar va tinglovchilar tomonidan bajarilishini nazorat qilish;

jamoada sog‘lom ma’naviy va ijodiy muhitni shakllantirish chora-tadbirlarini ko‘rish;

Maktabgacha ta’lim instituti rektori qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

15. Maktabgacha ta’lim institutida o‘quv ishlari – o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, ilmiy ishlarga – ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor rahbarlik qiladi.

Prorektorlar O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va matab ta’limi vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

16. Faoliyatning asosiy masalalarini ko‘rib chiqish uchun Maktabgacha ta’lim institutida rektor raisligida Institut kengashi tashkil etiladi.

Institut kengashining tarkibi rektorning buyrug‘i bilan tasdiqlanadi. Institut kengashi tarkibiga prorektorlar, kafedralar va bo‘limlar rahbarlari, shuningdek, yetakchi professor-o‘qituvchilar, jamoat tashkilotlari vakillari kiritilishi mumkin.

Institut kengashi qarorlari rektorning buyruqlari bilan ijroga yo‘naltiriladi.

Institut kengashi raisi va kotibi qabul qilingan qarolarning bajarilishi ustidan muntazam ravishda monitoring olib boradi va ularning ijrosi to‘g‘risida kengash a’zolariga hisobot beradi.

Institut kengashining ish tartibi yillik ish rejasiga muvofiq tashkil etiladi, dolzarb masalalarni ko‘rib chiqish uchun rejadan tashqari yig‘ilishlar o‘tkazilishi mumkin.

17. Quyidagilar Institut kengashining asosiy vazifalari hisoblanadi:

Maktabgacha ta’lim instituti, uning kafedralari va bo‘limlari rejalarini va hisobotlarini ko‘rib chiqish, Maktabgacha ta’lim instituti faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha o‘quv rejalarini va kurslar dasturlari hamda tavsiyalarni muhokama qilish;

Maktabgacha ta’lim instituti ilmiy-metodik va tashkiliy ishlarning asosiy yo‘nalishlarini ta’minlash va belgilash, samarali qayta tayyorlash va malaka oshirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini tahlil qilish va muvofiqlashtirish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni takomillashtirish;

qayta tayyorlash va malaka oshirishning davlat ta’lim talablari, o‘quv rejalarini va dasturlari bajarilishini ko‘rib chiqish;

Maktabgacha ta’lim instituti kafedralari va bo‘limlarini ochish, ularning faoliyatini o‘zgartirish va tugatish bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqish;

Maktabgacha ta’lim instituti doktorantlari va izlanuvchilarini bilan menejment (ta’limda boshqaruv) hamda maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasini va metodikasi bo‘yicha ilmiy faoliyat natijalarini muhokama qilish;

darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, ilmiy, o‘quv-metodik adabiyotlarni nashr qilish masalalarini ko‘rib chiqish;

Maktabgacha ta’lim institutini rivojlantirishning joriy (yillik) va istiqbolli rejalarini tasdiqlash.

## **V. MAKTABGACHA TA’LIM INSTITUTINI MOLIYALASHTIRISH VA MODDIY-TEXNIK TA’MINLASH, UNING XODIMLARI MEHNATIGA HAQ TO’LASH VA ULARNI MODDIY RAG‘BATLANTIRISH**

18. Maktabgacha ta’lim instituti O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjeti, pullik ta’lim va boshqa xizmat turlari hamda Qonun hujjatlarida ta’qiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi;

19. Maktabgacha ta’lim instituti moddiy-texnik bazasiga unga tegishli bo‘lgan yer maydonlari, binolar, sport zallari, kommunikatsiya, mashina va uskunalar, transport vositalari hamda ta’lim-tarbiya jarayonida foydalaniladigan boshqa anjomlar kiradi.

20. Maktabgacha ta’lim instituti o‘zining asosiy faoliyatiga zarar yetmaydigan tartibda ta’lim va boshqa sohalarda pullik xizmatlar ko‘rsatish faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

Maktabgacha ta’lim instituti pullik ta’lim xizmatlari, konsultatsiyalar va boshqa xizmatlar uchun narxlarni belgilash, daromadni mustaqil tasarruf etish huquqiga ega.

Maktabgacha ta’lim instituti O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga hamda mazkur Nizomga zid bo‘lmagan shartnomalarni tuzish, majburiyatlar va boshqa shartlarni belgilash bo‘yicha masalalarni mustaqil hal qiladi.

21. Maktabgacha ta’lim instituti xodimlarining ish haqi lavozim maoshi, mukofotlar, qo‘shimcha haqlar, ustamalardan va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to‘lovlardan iborat bo‘ladi.

22. Maktabgacha ta’lim instituti xodimlari lavozim maoshlariga har oyda qo‘shiladigan rag‘batlantirish xususiyatiga ega bo‘lgan ustamalar va qo‘shimcha to‘lovlardan amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibga binoan amalga oshiriladi.


23. Mehnatga haq to‘lash jamg‘armasi, budjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar Maktabgacha ta’lim instituti xodimlariga ish haqi to‘lash, moddiy rag‘batlantirish va moddiy yordam ko‘rsatishni amalga oshirish manbalari hisoblanadi.

## **VI. YAKUNLOVCHI QOIDA**

24. Nizomda belgilangan tartiblar buzilgan hollarda amaldagi qonunchilik doirasida javobgarlik belgilanadi.

25. Mazkur Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

**Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti  
 TUZILMASI**



Boshqaruvin xodimlarining umumiy cheklangan soni – **37 nafar.**

\*\*Texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar soni o‘rnatalgan me’yorlarga muvofiq belgilanganadi.

\*Professor-o‘qituvchilar oliy ta’lim muassasalarini uchun belgilangan me’yoriy-normativ hujjatlarga muvofiq aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi  
 Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining  
 2024-yil “5”-iyuldaggi 210-sod buyrug‘iga  
 9-ILOVA

**Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash  
 va ularning malakasini oshirish institutining tuzilmasi bo‘yicha lavozimlar nomi  
 va shtat birliklari soni**

T/r	Tarkibiy bo‘linmalar va lavozimlar nomi	Shtat birliklari soni
<b>Rektorat</b>		
1	Rektor	1,0
2	O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor	1,0
3	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor	1,0
4	Ilmiy kotib	1,0
5	Ma’naviyat va ma’rifat va iqtidorli yoshlar bilan ishlash bo‘yicha uslubchi	1,0
6	Bosh yuriskonsult	1,0
<b>Inson resurslarini rivojlantirish bo‘limi</b>		<b>2,0</b>
8	Bo‘lim boshlig‘i	1,0
9	Kadrlar bo‘yicha inspektor	1,0
<b>Ijro intizomi bo‘limi</b>		<b>2,0</b>
10	Bo‘lim boshlig‘i	1,0
11	Bosh mutaxassis	1,0
<b>Moliya-iqtisod va buxgalteriya hisobi</b>		<b>4,0</b>
12	Bo‘lim boshlig‘i-bosh hisobchi	1,0
13	Xarid bo‘yicha bosh mutaxassis	1,0
14	Iqtisodchi	1,0
<b>O‘quv uslubiy bo‘lim</b>		<b>4,0</b>
16	Bo‘lim boshlig‘i	1,0
17	Uslubchi	3,0
<b>Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi</b>		<b>3,0</b>
19	Bo‘lim boshlig‘i	1,0
20	Bosh mutaxassis	2,0
<b>O‘quv-me’yoriy hujjatlarni takomillashtirish bo‘limi</b>		<b>2,0</b>
21	Bo‘lim boshlig‘i	1,0
22	Bosh mutaxassis	1,0
<b>Axborot xavfsizligini ta’minlash va raqamlashtirish bo‘limi</b>		<b>4,0</b>
23	Bo‘lim boshlig‘i	1,0
24	Tarmoq administratori	3,0
<b>Ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash bo‘limi</b>		<b>3,0</b>
25	Bo‘lim boshlig‘i	1,0

26	Bosh mutaxassis	2,0
	<b>Innovatsion tadqiqot laboratoriysi</b>	<b>2,0</b>
27	Ilmiy-tadqiqot laboratoriysi (bo‘limi) mudiri	1,0
28	Bosh mutaxassis	1,0
	<b>Hududlarda uzluksiz malaka oshirish jarayonini tashkil etish bo‘limi</b>	<b>2,0</b>
29	Bo‘lim boshlig‘i	1,0
30	Yetakchi mutaxassis	1,0
	<b>Axborot-resurs markazi</b>	<b>2,0</b>
31	Markaz mudiri	1,0
32	Kutubxonachi	1,0
	<b>Ishlar bo‘limi</b>	<b>2,0</b>
33	Ishlar boshqaruvchisi	1,0
34	Bosh muhandis	1,0
	<b>Jami</b>	<b>37</b>

*Institut direktorining bazaviy lavozim maoshi – olyi ta’lim muassasasi filial direktorining bazaviy lavozim maoshi miqdoriga mos ravishda belgilanadi;*

*Prorektor lavozim maoshi – olyi ta’lim muassasasi filial direktori o‘rinbosari bazaviy lavozim maoshi miqdoriga mos ravishda belgilanadi;*

O‘zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining  
2024-yil “5”-iyuldaggi 210-son buyrug‘iga  
10-ILOVA

**Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash  
va ularning malakasini oshirish tashkilotlari ma’muriy-boshqaruvi  
va pedagog kadrlarining sifat tarkibini yaxshilash bo‘yicha  
ISHCHI GURUHLAR TARKIBI**

**1-Ishchi guruh \***

- |                       |                                                                                                                                              |
|-----------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. U.U.Sharifxodjayev | – Vazirning birinchi o‘rinbosari, ishchi guruh rahbari                                                                                       |
| 2. A.A.Ismailov       | – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti rektori, a’zo                                                                        |
| 3. I.I.Sharipov       | – Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i, a’zo                                                                              |
| 4. A.A.Xamidov        | – Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ularni tayyorlaydigan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi bosh mutaxassis, a’zo |
| 5. S.B.Shakirova      | – Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligining<br>– Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i, a’zo             |
| 6. Lavozimiga ko‘ra   | – Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, viloyatlar boshqarma boshliqlarining birinchi o‘rinbosarlari, a’zo     |
| 7. U.Bozorov          | – Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi yetakchi mutaxassis, ishchi guruh kotibi                                                     |

**2-Ishchi guruh\***

- |                  |                                                                                                           |
|------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. S.B. Radjabov | – Vazir o‘rinbosari, ishchi guruh rahbari                                                                 |
| 2. E.E.Murodov   | – Umumiyligi o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i, a’zo         |
| 3. X.X.Xusanov   | – Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i, a’zo |
| 4. M.A.Yuldashev | – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti prorektori, a’zo                                  |

- 5. S.R.Qodirov – Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ularni tayyorlaydigan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, a’zo
- 6. Lavozimiga ko‘ra – Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, viloyatlar boshqarma boshliqlarining birinchi o‘rinbosarlari, a’zo
- 7. B.G‘uzorov – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti kadrlar bo‘limi boshlig‘i, ishchi guruh kotibi

### **3-Ishchi guruh\***

- 1. F.E.Boqiyev – Vazir o‘rinbosari, ishchi guruh rahbari
- 2. O.O.Zokirov – Ta’lim sifatini baholash va monitoring qilish boshqarmasi boshlig‘i, a’zo
- 3. N.Sh.Kuchkarova – Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ularni tayyorlaydigan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i, a’zo
- 4. T.Yu.Shermatov – Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligining Ta’lim sifatini baholash va monitoring qilish boshqarmasi boshlig‘i boshqarmasi boshlig‘i, a’zo
- 5. B.K.Mamatov – Yuridik boshqarmasi Bosh yuriskonsulti, a’zo
- 6. Lavozimiga ko‘ra – Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, viloyatlar boshqarma boshliqlarining birinchi o‘rinbosarlari, a’zo
- 7. M.Karimova – Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi bosh mutaxassis, ishchi guruh kotibi

*Izoh:*

\* 1-Ishchi guruhga – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro, Navoiy, Samarqand viloyatlari Pedagogik mahorat markazlari biriktiriladi.

2-Ishchi guruhga – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Maktabgacha ta’lim instituti hamda Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax viloyatlari Pedagogik mahorat markazlari biriktiriladi.

3-Ishchi guruhga – Sirdaryo, Toshkent, Farg‘ona, Andijon, Namangan viloyatlari Pedagogik mahorat markazlari biriktiriladi.

\*\*Ishchi guruh a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan shaxslar yoki zimmasiga tegishli funksiyalarini bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining  
2024-yil “5”-iyuldagi 210-son buyrug‘iga  
11-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi ta’limi tizimiga oid  
o‘z kuchini yo‘qotgan ayrim buyruqlari  
RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2022-yil 21-dekabrdagi “Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari tuzilmasida Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 385-sonli buyrug‘i;
2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 29-avgustdagи “A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti tashkiliy faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 278-sonli buyrug‘i;
3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 24-iyuldaagi “Kutubxonalar faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 217-sonli buyrug‘i.